

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHYER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVYERSITETI**

**Tarix fakulteti
“O‘zbekiston tarixi” kafedrası**

XASANOV MUROD GAYBULLAYEVICH

**“AMIR SHOHMUROD DAVRIDA BUXORO
DAVLATI”**

5220200 – Tarix bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar

t.f.n. M. Nasrullayev

SAMARQAND - 2016

MUNDARIJA

Kirish.....	2-7
1-Bob Amir Shohmurod hokimiyatining o’rnatilishi va uning ichki siyosati.....	8
1.1 Amir Shohmurodning hokimiyat tepasiga kelishi va markazlashtirish uchun kurash.....	8-19
1.2 Amir Shohmurod o’tkazgan islohotlarning omillari va ularning ahamiyati.....	20-27
1.3 Amir Shohmurod davrida davlat tuzilishi, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot.....	28-39
2-Bob Amir Shohmurodning tashqi siyosati.....	39
2.1 Amir Shohmurodning Xiva va Qo’qon xonliklari, hamda Sharq mamlakatlari bilan munosabatlari.....	40-49
2.2 Amir Shohmurodning Rossiya bilan diplomatik va savdo aloqalari.....	50-53
Xulosa.....	54-55
Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro’yxati.....	56-58
Ilova.....	59-61

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik yillarida jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida bo'lganidek, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy yo'nalishlarda ham milliy o'zligimizni anglash, davlatchiligimiz tarixining noma'lum sahifalarini qaytadan o'rganish, asossiz ravishda unutilgan davlat arboblari hamda mutafakkirlarimizning boy ilmiy ijodiy me'rosini yoritish bilan bog'liq izlanishlarga keng yo'l ochildi. Ta'kidlash joizki, o'zbek xalqining tarixiy-madaniy me'rosida davlatchilikka bag'ishlangan asarlar salmoqli o'rin egallaydi. Ana shunday tariximizni, me'rosimizni haqqoniy o'rganish, ularni ilmiy tahlil qilish bugungi kunimizning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu masalada Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid 10 minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plangan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan bu nodir qo'lyozmalarni jiddiy o'rganish davri keldi»¹.

Darhaqiqat, bugungi kunga kelib, o'zbek milliy davlatchiligini tadqiq etish va ilmiy jihatdan o'rganish respublika tarixchilari oldida turgan dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Muhtaram Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbot talab bo'lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarur»².

O'zbekiston davlatchiligi boy tarixga ega bo'lib, uning uzoq davrlar davomida tarkib topgan nazariy-huquqiy tajribalarni zamonaviy, demokratik huquqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish va jamiyatimiz turmushida ulardan yanada kengroq va samaraliroq foydalanish hozirgi kunning dolzarb

¹ Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т.7.-Тошкент. Ўзбекистон, 1999.-Б.132-133

² Ўша асар. –Б. 134.

masalalaridan biridir. Shu bois xalqimizning boy ilmiy ma'naviy merosini, xususan milliy davlatchiligimiz tarixida o'ziga xos davlat hisoblangan Buxoro amirligining Amir Shohmurod hukmronligi yillaridagi tarixini milliy istiqlol mafkurasi talablaridan kelib chiqqan holda o'rganishga, hozirgi kunda O'zbekiston tarixi fani oldida turgan eng muhim masalalardan biri sifatida qaralmoqda. O'zbekiston davlatchiligi tarixida davlatini har tomonlama rivojlantirib, taraqqiy etishi uchun o'z umrini, siyosiy iqtidorini baxshida etgan, adolatli, xalqparvar, tarixda chuqur ijobiy iz qoldirgan, qisqa qilib aytganda bugungi yoshlar uchun ibratli bo'lgan hukmdorlar, buyuk arboblarning faoliyatiga ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Masalan, Amir Temur, Shohruh Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Abdullaxon II, Abdulg'ozi Bahodirxon, Subhonqulixon va boshqalar. Amir Shohmurod ham ana shunday hukmdorlardan biri bo'lgan. Uning hukmronlik yillarida Buxoro amirligi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi ijobiy o'zgarishlar va yutuqlarning sabablari va ahamiyatini o'rganish dolzarb tadqiqot mavzularidan biri sanaladi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Tadqiqot ob'ekti - Amir Shohmurod davrida Buxoro davlatidagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot, undagi o'zgarishlarning omillari va natijalari bo'lsa, predmeti esa Amir Shohmurod yuritgan ichki siyosat, olib borgan islohotlari, hamda qo'shni va chet mamlakatlar bilan munosabatlarini o'rganib, tahlil qilish.

Tadqiqotning xronologik chegarasi. Tadqiqotning xronologik ko'lami – asosan Amir Shohmurodning hukmronlik davri ya'ni 1785-1800-yillarni o'z ichiga olsada, 1740-70-yillarda Buxoro davlatida ro'y bergan tarixiy voqealar ham mavzuda aks etgan.

Tadqiqotning hududiy chegarasi. Tadqiqot o'zida Buxoro amirligidan tashqari, Marv, Xuroson, Afg'oniston, Eron, Hindiston, Xitoy, Usmonli turk imperiyasi va Rossiya imperiyasi hududlarini qamrab olgan.

Mavzuning tarixshunosligi. Ko'p olimlar Amir Shohmurod to'g'risida ilmiy ishlar chop ettirishgan, lekin bu mavzu bo'yicha keng qamrovli ilmiy ishlar qilinmagan. Buxoro amirligi tarixi bilan qiziqib, uni tadqiq qilgan olimlar juda ko'p bo'lib, ularning ilmiy ishlarida Amir Shohmurod zamoniga ham ozmi ko'pmi to'xtalib o'tilgan. Amir Shohmurod hukmronligi bo'yicha Hamid Ziyayevning "XVIII asrda O'rta Osiyo va Sibir", B.Eshovning "O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi", Rustam Shamsutdinovning "Vatan tarixi", P.P. Ivanovning "Ocherki po istorii Sredney Azii(XVI-XIX vv.)", Anke fon Kyugelkenning "Legitimizatsiya sredneaziatskoy dinastii mangitov v proizvedeniyax ix istorikov(XVIII-XIX vv.)", Veselovskiy N. "Mangitskaya dinastiya, nine tsarstvuyushaya v Buxare", Bartold V.V. "Sochinenie", Ayni Sadridin "Ta'rix amironi mangitiyai Buxoro", R.Burnasheva "Moneti Buxarskogo xanstva pri Mangitax", E.A. Davidovich "O merax vesa pozdnesrednevekovoy Buxari", M.A.Abduraimov "Ocherki agrarnix otnosheniy v Buxarskom xanstve v XVI-pervoy polovine XIX veka" N.V.Xanikov "Opisanie Buxarskogo xanstva", P.I.Demezov "Zapiski o Buxarskom Xanstve" va boshqa asarlarda ma'lumotlar uchraydi.

Mavzuning manbaviy asoslari. Mavzu manbashunosligi haqida ham yuqoridagidek fikr yuritish mumkin. Tarixda ma'lum bir tarixchilar o'z zamonasining hukmdoriga bag'shlab tarixiy asar yozishgan, bunga misol qilib, Sharafiddin al-Yazdiyning Amir Temurga bag'shlab yozgan "Zafarnoma" asari, Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma", Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma", Abdurahmon Tole'ning "Abulfayzxon tarixi" va boshqalarni olishimiz mumkin. Lekin xuddi yuqoridagi kabi aynan Amir Shohmurodga bag'shlangan, uning hukmronligini mukammal bayon etadigan asar yo'q, agar bo'lgan bo'lsa u bizgacha yetib kelmagan. Shunday bo'lsada, mang'itlar sulolasi tarixini

bayon etuvchi XVIII asr oxiri va XIX asrda o'z davrining mashhur tarixchilari tomonidan yozilgan asarlar mavjud bo'lib, ularda Amir Shohmurod va uning hukmronligi haqida qimmatli ma'lumotlar aks etgan. Amir Shohmurod hukmronligi bo'yicha muhim ma'lumotlarni beruvchi manbalar sifatida birinchi navbatda Muhammad Yoqub ibn Doniyolbiyning "Gulshan ul-muluk" , Mirzo Abdulazim Somiyning " Tarixi salatin mang'itiya", Ahmad Donishning "Mang'itlar sulolasi tarixi haqida risola" kabi asarlarni olishimiz mumkin. Bundan tashqari 1790-yilda O'rta Osiyoda bo'lgan mitropolit Xrisanf Novopatrasskiy (Kontarini),1794-95-yillarda Buxoroda bo'lgan rus vakillari T.S.Burnashev, A.S. Beznosilov va boshqa elchi, sayohatchilarning qoldirgan esdaliklarida Amir Shohmurod davrida Buxoro davlati haqida ozmi ko'pmi ma'lumotlar bo'lib, ulardan tadqiqot uchun muhim manba sifatida foydalanamiz.

Mavzuning amaliy ahamiyati. Sobiq ittifoq davrida o'zbek xonliklari davri qabohat, siyosiy, iqtisodiy, madaniy qoloqlik, diniy mutaassiblik hukm surgan davr sifatida talqin qilinardi. O'sha davr hukmdorlari haqida so'z ketganda chala savod, fikri hayoli xalqni ezish, uni ekspluatatsiya qilish o'ylari bilan band bo'lgan kaltabin shaxslarni gavdalantirishga harakat qilinardi. Go'yoki ular faqat xaramni kengaytirish, bachabozlik, bedanabozlik, maishiy tubanlikdan boshqa narsaga yaramaydigan insonlar bo'lishgan ekan. Albatta ayrim hukmdorlarda bunday hislatlar bo'lgan, lekin shu bilan birga Vatan, xalq taqdiriga befarq qaramagan, taraqqiyotni o'ylagan hukmdorlar ham talaygina bo'lgan. Bunday hukmdorlar orasida Amir Shohmurod alohida ajralib turadi. Taqvodorligi, kamtarinligi, adolatparvar ekanligi sababli xalq uni Amiri Ma'sum (begunoh amir) deb atardi. Aynan Shohmurod qator islohotlarni amalga oshirib, markazlashgan davlat tuzishga, mamlakat sarhadlarini kengaytirishga muvaffaq bo'ldi va shu asosda taraqqiyotga, xalq turrmush darajasini ko'tarishga yo'l ochdi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, tarixchi olimlarimiz oldiga sovet davrida "qoralangan" tariximizni xolisona o'rganib, uni tahlil qilish orqali asl holicha to'g'ri yoritish kabi muhim vazifalar quyildi va bu borada ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirildi. Buning natijasida O'zbekiston tarixi fani o'lkan yutuqlarga erishdi, hatto buni YUNESKO tashkiloti, yirik ilm-fan va madaniyat markazlari, ko'pgina chet el tarixchi olimlari e'tirof etishdi. Mavzuning amaliy ahamiyati ham yuqoridagi fikrlar bilan chambarchas bog'liq. Sovet davrida Amir Shohmurodni ham ayyor va zolim hukmdor sifatida talqin qilinib, uning siyosiy ishlari shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan degan noto'g'ri fikrni asoslashga harakat qilingan. Buni mazkur tadqiqot tarixiy faktlar asosida inkor qiladi, Amir Shohmurodning siyosiy ishlarida ijobiy jihatlarini ochib beradi. Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiylik, ob'ektivlik, ilmiylik tamoyillariga asoslanilgan holda taqqoslash, qiyosiy tadqiqot metodlari, xronologik tahlil kabi tadqiqot uslublaridan foydalanildi.

Mavzuning maqsad va vazifalari. O'zbekiston tarixi, xususan O'zbekiston davlatchiligi tarixida muhim o'rin egallagan Amir Shohmurod davrida Buxoro davlati tarixini har tomonlama, ayniqsa bugungi kunimiz uchun ibratli jihatlarini o'rganib, tahlil qilib, uni tadbiq etish tadqiqotning muhim maqsadi bo'lib xizmat qiladi. Ishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Amir Shohmurod va uning mamlakatni markazlashtirishda amalga oshirgan ishlari haqida malumot berish;
- Amir Shohmurodning o'tkazgan islohotlariga tavsif berish;
- XVIII asr II yarmida Buxoro amirligining siyosiy ahvoli, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotining asosiy jihatlarini yoritish;
- Amir Shohmurodning tashqi siyosatini yoritish;;
- -Tadqiqot yuzasidan umumiy xulosalarni yoritib berish.

Ishning tarkibiy tuzilishi: Bituruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan tarkib topgan. Ishning umumiy hajmi 61 sahifani tashkil etadi.

1-bob. Amir Shohmurod hokimiyatining o'rnatilishi va uning ichki siyosati.

1.1.Amir Shohmurodning hokimiyat tepasiga kelishi va markazlashtirish uchun kurash.

XVIII-asrda o'zbek davlatchiligi tarixida O'rta Osiyoda jiddiy siyosiy o'zgarishlar ro'y berdi, xususan, 1709-yilda Chodak din peshvolarining qo'llab-quvvatlashi natijasida minglar Farg'ona vodiysida o'zlarining davlati— Qo'qon xonligiga asos solishib, ashtarxoniyarning Buxoro xonligidan ajralib chiqishdi, 1753-yilda mang'itlar sulolasi rasman Buxoro davlatini qo'lga olishdi va Buxoro amirligiga asos solishdi, 1770-yilda esa Xiva xonligida ham sulolaviy almashinuv yuz berdi — shayboniylar o'rniga qo'ng'irotlar sulolasi keldi. Bularning oqibatida O'rta Osiyoda yangi sulolalar hukmronligi ostida 3 ta davlat shakllandi. Lekin bu davlatlar oldida murakkab bir vazifa ya'ni markazlashtirish siyosatini olib borish turardi. Ayniqsa, Buxoro davlatini mahalliy qabilalar boshliqlarining separatizmi, markazga bo'y so'nmaslik harakatlari bilan juda ko'p vaqt qiynadi. 1753-yildan 1920-yilgacha mavjud bo'lgan mazkur davlat o'tmishida tarixda "Amiri Ma'sum"("Begunoh amir") nomi bilan mashhur hukmdor - Buxoro amiri Amir Shohmurod davrida nisbatdan markazlashtirish siyosati muvaffaqiyatli amalga oshirildi, mamlakat gullab-yashnadi, tinchlik hukm surdi. Amir Shohmurodning hokimiyat tepasiga kelishi, olib borgan siyosiy faoliyatini yoritish uchun oldin unga qadar mavjud amirlikning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy ahvolini ko'rib chiqish lozim bo'ladi, bu bizga Shohmurod ibn Doniyolbiyning qanday vaziyatda taxtga kelishi, qanday inson ekanligi, hamda uning yuritgan ichki va tashqi siyosatini tushunishimiz uchun juda muhim.

1740- yilda Eron qo'shinlari Nodirshoh boshchiligida Buxoroga qarshi hujum boshladi. Buxoro va Xiva xonlari umumiy dushmanga qarshi

kurashish uchun birlasha olmadilar. Bu ham yetmaganidek, Buxoroning o'zida xoinlik yuz berdi. Xonlikda yetakchi mavqega ega bo'lib olish niyatidan qaytmagan Qarshi hukmdori Muhammad Hakimbiy Nodirshoh tomoniga o'tib ketdi. Abulfayzxon Eron bosqiniga qarshi kurashni uyushtira olmadi va taslim bo'ldi. Nodirshoh Buxoro xonligining taslim bo'lish shartlarini Muhammad Hakimbiy orqali Abulfayzxonga jo'natdi. Taslim bo'lish haqidagi shartnomani imzolash uchun Abulfayzxon Zarafshon daryosining bo'yidagi Chorbakr qo'rig'iga — Nodirshoh huzuriga borishga majbur bo'ldi. Shartnomada, Nodirshoh qo'shinlari uchun 8 yilga yetadigan 200 ming xarbor bug'doy va arpa to'plab berish, Buxoro xonligi aholisidan 10 ming nafarli qo'shin to'planib Nodirshoh ixtiyoriga jo'natilishi nazarda tutilgan edi. Bu qo'shinga Muhammad Hakimbiyning o'g'li Muhammad Rahim qo'mondon etib tayinlandi. Shu tariqa Buxoro Eronga qaram davlatga va Abulfayzxon amalda qo'g'irchoq hukmdorga aylanib qoldi. Muhammad Hakimbiy esa qb'shbegi lavozimini egalladi. Butun hokimiyat amalda uning qo'l ostida to'plandi. Endi ashtarxoniylar hukmronligining barham topishi muqarrar bo'lib qoldi.³

Buxoroda ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davrida o'zbek qabilalaridan mang'itlar va qo'ng'irotlarning nufuzi baland edi. Bu ikki qabila haqiqiy hokimiyat ashtarxoniylar qo'lida bo'lib turgan davrlarda ularga sadoqat bilan xizmat qilgan edilar. Biroq, keyinchalik, Buxoroda mang'itlar alohida nufuzga ega bo'lish uchun astoydil kurashdilar. Muhammad Hakimbiy davrida bu maqsadga erishdilar.

Muhammad Hakimbiy 1743-yilda vafot etgan edi. Uning o'g'li Muhammad Rahimbiy o'zining muntazam qo'shinga ega ekanligidan foydalanib, hokimiyatda otasi kabi alohida mavqe uchun da'vogarlik qila

³ Муртазаева Р.Х. “Ўзбекистон тарихи” Т.,; 2003-й 314-б

boshladi. So'nggi ashtarxoniy Abulfayzxon unga Bosh vazirlik lavozimini berishga majbur bo'ldi va oxir-oqibatda markaziy hokimiyat uning qo'lida to'plandi.

Nodirshoh 1747- yilda o'ldirilganidan so'ng Eronda boshlangan ichki kurashlar Muhammad Rahimbiyning Buxoro taxtini egallashiga yo'l ochib berdi. Uning buyrug'i bilan Abulfayzxon ham 1747- yili o'ldirildi. Muhammad Rahimbiy taxtga Abulfayzning o'g'li Abdulmo'minni o'tqazdi va uni o'ziga kuyov qilib oldi. Ko'p o'tmay Muhammad Rahimbiy kuyovi Abdulmo'minni ham qatl ettirdi. Tez orada Muhammad Rahimbiy Buxoro aslzodalari va ruhoniylarining qo'llab-quvvatlashi bilan 1756- yilda o'zini xon deb e'lon qildi. Biroq mang'itlar chingiziylar nasliga mansub bo'lmaganligi uchun undan keyingi mang'it hukmdorlari o'zlarini xon deb emas, amir deb ataganlar. Ular Buxoro mintaqasining diniy hukmdori — amir ul-mo'minin hisoblanganlar. Shunday qilib, 1756- yili Buxoroda hokimiyat tepasiga yangi sulola — mang'itlar sulolasi keldi va davlatni 1920-yilgacha idora qildi. Shundan boshlab Buxoro xonligi endilikda Buxoro amirligi deb ataladigan bo'ldi.

Mang'it hukmdori Muhammad Rahimxon (1756—1758) mamlakatda o'zining mutlaq hukmdorligini o'rnatish hamda ichki boshboshdoqlikni tugatish siyosatini tutdi. Bunday siyosatdan ko'zlangan maqsad — markazlashgan davlatni tiklash edi. Muhammad Rahimxon bu siyosatni ro'yobga chiqarishga qat'iy kirishdi. U barcha mahalliy hukmdorlarni o'z huzuriga chorlab, ularga o'zining asl maqsadini, o'z boshqaruv dasturini ma'lum qildi. Lekin davom etayotgan ichki nizolar, urushlar mamlakatni xonavayron qilayotganligi, xo'jalik, savdo-sotiq ishlarining izdan chiqayotganligi, agar bu jarayonlar bundan buyon ham davom etiladigan bo'lsa, davlat halokati muqarrar ekanligini alohida ta'kidladi. Qaysi mahalliy

hukmdor markaziy hokimiyatga bo'ysunmasa, undaylar ayovsiz jazoga tortilishini aytdi.

Muhammad Rahimxon mustaqillikni da'vo etib yurgan Miyonqol, Nurota, Qo'bodiyon, Boysun, Shahrisabz hamda Urgut beklklarini to'rt yil davomida o'ziga bo'ysundirdi. Ayni paytda u bo'ysunishni ustamagan, markaziy hokimiyatga qaqsrshilik qilishga urinayotgan qabilalarni turgan joyidan ko'chirtirib yuborish siyosatini tutdi. Masalan, burqut, qipchoq, yetti urug', bahrin, yuz, kenagas, saroy va boshqa qabilalarga nisbatan ana shunday siyosat yuritildi.

Muhammad Rahimxon yirik yer egalarning davlatni boshqarish ishlarida shu vaqtgacha davom etib kelgan aralashuvlarini keskin kamaytirishga erisha oldi. Shunday bo'lsa-da, u barcha beklklarining markaziy hokimiyatni tan olishlariga to'la muvaffaq bo'la olmadi.

Muhammad Rahimxon vafotidan so'ng uning amakisi Doniyolbiy otaliq hokimiyatni o'z qo'liga oldi (1758-1785). U o'zini xon atamadi va Abulfayzxonning nabirasi Abulg'ozini taxtga o'tqazdi.⁴ Doniyolbiy ham otaliq mansabini, ham amaldagi hukmdorlikni o'z qo'lida saqlab qoladi. U o'z qo'shinlarini mustahkamlashga, unga tayanib ish ko'rishga harakat qildi. Barcha mang'it beklariga katta yer-mulkni tanho qilib berdi. Xalqdan olinadigan soliqlarni ko'paytirdi. Uning davrida Balx, Hisor, Ko'lob, O'ratepa beklklarining mustaqillikka intilishlari kuchaydi. Katta yer egalari, qushbegi va qozikalonlarning o'zboshimchaligini esa sindira olmadi. Miyonqal'a va Samarqanddagi qabilalarning qarshiligini bartaraf eta oldi, lekin Shahrisabz kenagas qabilasini bo'y so'ndira olmadi. Doniyol otaliq davrida notinchlik hukm surdi: madrasalar faoliyati zaiflashdi, qishloq xo'jaligi og'ir ahvolga kelib qoldi, ichki va tashqi savdo qisqardi, xalq hayoti juda ham og'irlashib qoldi. Bundan tashqari qabilalar o'rtasida qabilaviy

⁴ www.ru.wikipedia.org

mavqei, markaziy hokimiyat uchun kurash, mang'itlar hukmronligini tan olmaslik kabi separatistik harakatlar avj olib ichki nizo kuchaydi. Mana shunday og'ir sharoitda mamlakatga separatistik urushlarni to'xtatish orqali davlatni markazlashtira oladigan kuchli, xalqni birlashtirib, hammani notinchlik, yo'qchilik, adolatsizlik, vayronagarchiliklardan olib chiqa oladigan xoloskor hukmdor kerak edi va bunday davlat rahbari Amir Shohmurod bo'ldi.

Shohmurod ibn Doniyolbiy 1749-yilda (ba'zi manbalarda 1740-yilda) Buxoro shahrida o'z davrining eng nufuzli zodagon kishisi, keyinchalik Buxoro amirligining amaldagi hukmdori bo'lgan Doniyolbiy otaliq oilasida tavallud topgan. Shohmurod oilada to'ng'ich farzand bo'lib, uning 11 ta ukalari bo'lgan(singillari haqida aniq ma'lumotlar yo'q).⁵ Doniyolbiy otaliq o'g'illaridan aynan Shohmurodga mehri va e'tibori ko'proq bo'lgan, uni Begijon deb erkalagan.⁶ Shohmurod yoshligidan diniy va dunyoviy bilimlarga qiziqqan, uning e'tiborini ko'proq tasavvuf ilmi hamda fiqh o'ziga tortadi, bunda albatta bevosita otasining ta'siri ham bor. Doniyolbiy otaliq diniy bilimlarga qiziqqanligi sababli amirlikdagi mashhur din peshvolari, madrasalarda islom ta'limotidan dars beruvchi kishilar va so'filar bilan suhbatlashishni kanda qilmagan, ularni saroy yoki uyiga chaqirib diniy masalada tadbirlar uyushtirib turgan, bu esa o'z navbatida Shohmurodning diniy bilimlarga qiziqishining omillaridan biridir.

Diniy va dunyoviy ta'lim ko'rgan Shohmurod butun hayotini so'fiylikka bag'shlab, umr bo'yi darveshona kun kechirish yo'lini tanlaydi va Buxorodagi eng mashhur tasavvuf ilmi sohiblaridan, pirlardan biri, Naqshbandiya-mujodadiya tariqatining yirik namoyondasi Shayx

⁵ www.ru.wikipedia.org

⁶ Анке Фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII - XIX вв.). - Алматы, 2004

Muhammad Safarga ixlos quyib, unga murid bo'ladi, hamda ustozidan ko'p vaqt ta'lim oladi. Shohmurod ko'pincha Buxoroning jome' masjidida yashab, hujraga qamalib, nafsni tiyish, o'zini idrok etish, o'z ruhiyatini boshqarish mashqlari(meditatsiya) bilan tinimsiz shug'ullangan.⁷ Shohmurod o'zining qati'yatligi, tirishqoqligi, qobiliyati va aql-u zakovati bilan qisqa fursat ichida ustozining alohida hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lgan.

Darveshlik bilan birgalikda Shohmurod bozorda hammollik bilan shug'ullangan, xalq ichida el qatori kamtarona kiyinib, kamtarona kun kechirgan. Hukmdor xonadoni vakili bo'lgani bois Shohmurod o'z qo'riqchilari va xizmatkorlariga ega bo'lgan. Doniyolbiy otaliq o'g'lining tanlagan bunday hayot tarziga bir tomondan ijobiy qaragan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa o'g'lini o'zidan keyin hukmdor bo'lishini juda ham istagan, chunki Doniyolbiy faqat o'g'li Shohmurodni munosib valiahd deb hisoblagan. Shohmurodni esa hokimiyat mutlaqo qiziqtirmagan, chunki bu umrni tasavvuf tariqatiga bag'shlash uchun zid edi, kimlardir haqiqatga erishish orzusida taxtdan voz kechgan, kimlardir boylikdan voz kechib, uni xalqqa tarqatgan va xalq dardi bilan yashagan, sababi tasavvuf tariqati qonun-qoidasiga ko'ra sufiy kishi hukmdor yoki mansabdor shaxs bo'lishi mumkin emas edi, shu boisdan Shohmurod valiahdlikdan o'z ixtiyori bilan voz kechib, hatto toj-u taxt haqida eshtishni ham istamagan.

Doniyolbiy otaliq o'g'lini siyosatga tortish maqsadida dastlab Shohmuroddan diniy masalalar bo'yicha maslahatlar so'rab uni tez-tez saroyga chaqirib turgan, Shohmurod ham otasini qiyin sharoitida qo'llab-quvvatlashga harakat qilgan, shunday qilib asta-sekinlik bilan Shohmurodning hukmronligiga qadar siyosiy faoliyati boshlangan. Keyinchalik otasining iltimosiga ko'ra Shohmurod Karmanani boshqaradi, bu hudud ham o'sha davrda mustaqillikka intilgan bekliklardan bo'lib,

⁷ <http://greylib.align.ru>

Shohmurodbiy Karmananing markaziy hokimiyatga bo'y so'nishini ta'minlaydi. Shundan so'ng Qarshi bekligida hokimlik qiladi, bu hududni ham poytaxt Buxoroga tobeligini mustahkamlaydi, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik bir qancha ijobiy ishlar qiladi.

1780-yil (ba'zi manbalarda 1760-yillar oxiri) da Shohmurodbiy otasi tomonidan Samarqandga hokim etib tayinlanadi va unga Ulug' noib unvoni beriladi, bu bilan Doniyolbiy otaliqning Shohmurodbiyni siyosatda ushlab turish harakat qilgan. Samarqand Shohmurodbiyga qadar hayoti izdan chiqib huvillab qolgan shaharga aylangan edi. 1726-yil Tavakkalxon boshchiligidagi qozoqlarning hujumi va shaharni talashi, undan so'ng 1740-yilda Eron shohi Nodirshoh tomonidan shaharning ishg'ol qilinishi va talon taroj qilishi, keyinchalik shaharda vabo epidemiyasining tarqashi va buning oqibatida ko'p samarqandliklarning yostig'i qurishi, shaharning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti izdan chiqishi tufayli mahalliy aholining Samarqandni tark etib, Buxoro, Qarshi va boshqa joylarga ko'chib ketishi shaharning bunday og'ir darajaga kelib qolishiga sabab bo'ldi. Shundan so'ng Samarqandni tiklashga 1780-yilgacha harakat qilinmagan va e'tibor berilmagan, bir manbada Samarqandda 40 ta, boshqa manbada 1000 ta xonadon qolgani aytiladi.⁸. Shohmurodbiy Samarqanddagi faoliyatini shahar hayotini to'liq ko'zdan kechirish, aholisini ro'yxatga olish, shahar hududi va mavjud mahallalar tarxini chizib, shaharni va u bilan bog'liq muammolarni batafsil o'rganishdan boshlaydi.

1785-yilda 27-yil Buxoro amirligini idora qilgan hukmdor Doniyolbiy otaliq vafot etadi. Bu xabarni eshitgan Samarqandda hokim bo'lib turgan Shohmurodbiy Buxoroga qaytadi. Uning taxtga chiqishiga doir ko'p bahsli fikrlarni ko'rishimiz mumkin. Asosli ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak,

⁸ Сувонкулов И. “ Самарқанд қадамжолари” Т.,; 2006-й

hali ham qalandarlikda umr guzaronlik qilish umidida yurgan Shohmurod dastavval taxtdan voz kechadi, lekin bir tomondan ota vasiyati, bir tomondan siyosiy o'yinlar-u adolatsizliklardan bezigan Buxoroning oddiy xalqi, Doniyolbiy otaliqni qo'llab-quvvatlagan amaldorlar, din peshvolari va harbiy qo'shin, hamda qabila mavqeini saqlab qolish tashvishida bo'lgan mang'it urug'-qabilalari boshliqlari Shohmurodbiydan davlatni boshqarishini iltimos qilishadi. Shunday vaqtda Shahrisabz mustaqil hokimi Niyozali Doniyolbiy otaliqning o'limidan foydalanib, mang'itlarni siyosatdan chetlashtirish va hokimiyatni egallash maqsadida Buxoroga hujum qiladi.⁹ Shohmurod shunday og'ir sharoitda o'z xalqi uchun hokimiyatni egallashga majbur bo'ladi, yo'qsa mamlakat ayanchli qismatga yuz tutib, taxt uchun kurash, qabilaviy nizolar, Xiva va Qo'qon xonligi, Afg'oniston podsholigi va qozoq qabilalari kabi tashqi kuchlarning fursatdan foydalanib, hujum qilishi kabi ko'plab xunrezliklarni boshidan kechirishi mumkin edi. Shohmurod taxtga Abulfayzxonning nevarasi Abulgo'zixonni qo'yib, amaldagi hokimiyatni o'z zimmasiga oladi. Shohmurodbiy shahrisabzliklar hujumini sindiradi va dushmani ta'qib qilib, Shahrisabzni egallashga muvoffaq bo'ladi. Buxoroni ham himoya qilib, ham Shahrisabzning mustaqilligiga chek qo'ygan Amir Shohmurodning mavqei oshib borishidan cho'chib, uni davlat tepasida qolishini istamagan ba'zi yirik amaldorlar Buxoroda xalq qo'zg'olonini uyushtiradi. Amir Shohmurod isyonni tinch yo'l bilan bostiradi, ba'zi manbalarda qayd etilishicha Amir Shohmurod xalqqa jabr yetkazgani uchun otasini kechirishlarini Buxoro ahlidan so'rab, shahar bo'ylab yurgan.¹⁰ Shahrisabz egallangandan so'ng qisqa vaqt ichida poytaxtda va davlat qo'shinida tartib o'rnatgan Shohmurodbiy o'zining markazlashtirish

⁹ www.ru.wikipedia.org

¹⁰ Дониш, Ахмед, История мангитской династии, Душанбе, 1967

siyosatini jadallik bilan boshlaydi. Hukmronligining birinchi yilida Shohmurodbiy birdaniga pul, harbiy va ma'muriy islohotlarini o'tkazadi. Aynan shu islohotlar Shohmurodbiyning keyingi faoliyatiga ijobiy ta'sir qilib, hokimiyatining mustahkamlanishiga xizmat qildi. Pul islohoti bilan Shohmurodbiy mang'itlar sulolasi hukmronligini yana ham qonuniylashtirdi, ma'muriy islohot o'tkazish orqali yirik mansab va davlat lavozimlariga o'z ishonganlarini tayinlab, o'z tarafdorlarini ko'paytirdi. Harbiy islohot natijasida Shohmurodbiy tartibli qo'shinga ega bo'lib, markazlashtirish siyosati yo'lida muvaffaqiyatli harbiy yurishlarni amalga oshirdi. Islohotlarning oson va tezlikda amalga oshirilayotganidan qo'rqqan muxolifat kuchlar Shohmurodbiyning ukasi To'xtamishni taxtga o'tqazish maqsadida Shohmurodbiyga qarshi suiqasd uyushtirishadi. Lekin bu suiqasddan Shohmurodbiy omon qoladi va fitnachilarni toptirib ularni ayovsiz jazolaydi. Faqat To'xtamish va ba'zi fitnachilar qochib qutulishdi.¹¹

1785-yilda Shohmurodbiy Toshkentga hujum qiladi va shaharni egallaydi. U yerga o'z noibini qo'yib, Buxoroga qaytadi. Lekin keyinchalik Toshkentda Buxoroga qarshi isyon ro'y beradi va bu isyon bostiriladi. Yana isyon kutarilishini oldini olish maqsadida mahalliy aholining bir qismi Samarqand shahriga zo'rlik bilan ko'chirib o'tkaziladi. Toshkent 1790-yilga qadar Buxoro qo'l ostida bo'ladi.

1786-yilda Shohmurodbiyga qarshi Karmanada mahalliy bek va qabila boshliqlari boshchiligida isyon ko'tariladi. Qo'zg'olonchilar Kalkanat, Xazor va Nur hududlarini egallaydilar. Shohmurodbiy katta kuch bilan qo'zg'oloni bostirdi. O'sha yilda Shahrisabz ham Shohmurodbiyga bo'y so'nishdan bosh tortdi, lekin o'z vaqtida amalga oshirilgan harbiy harakat natijasida Shahrisabz qayta egallandi. Keyin Xo'jand ham bo'y so'ndirildi.

¹¹ Дониш, Ахмед, История мангитской династии, Душанбе, 1967

1786-yilda Shohmurodbiyning harbiy harakatlari Marvga qarshi qaratiladi. Doniyolbiy otaliq vafot etganini eshitishi bilan Marv hokimi Bayramali Shohmurod huzuriga elchi orqali maktub va sovg'a-salomlar yuborib, o'z hamdardligini bildiradi. Elchi olib kelgan maktubda Bayramali Doniyolbiy otaliq bilan samimiy munosabatda bo'lgani, hatto uni o'z otasiday ko'rgani va Buxoro va Marv o'rtasida do'stona munosabat davom etishi kerakligi yozilgan edi. Shohmurodbiy esa Marv Buxoroga bo'y so'nishi kerak degan qarorga keladi, u Marvni egallash masalasida har oy majlis o'tkazadi. Nihoyat, 1786-yilda isyonlarni bostirishda ishonchni oqlagan harbiy qo'shin bilan Shohmurodbiy Marvga hujum qiladi. Marvliklar qattiq qarshilik ko'rsatib himoyalanihadi, ammo Marv baribir Shohmurodbiy tomonidan egallanadi. Shohmurodbiy Marvga ukalari Umarbiy va Fozilbiylarni noib qilib tayinlab, Buxoroga qaytadi. Lekin ko'p o'tmay inilar Marv turkmanlar tomoniga og'ib, o'z akasiga qarshi jang boshlashadi. O'zaro jangda ukalarining qarshiligini sindirolmagach Shohmurodbiy Marvga boradigan suv yo'li Sultonband to'g'onini buzdirib tashlaydi va ortiga qaytib ketadi. Marvda ochlik boshlanadi, Fozilbiy va Umarbiylar Marv xalqini talashga tushadi, xalq esa isyon qilib, ulardan shaharni tark etishlarini talab qiladi. Fozilbiy va Umarbiylar Shahrisabzga qochishga majbur bo'lishadi. Shohmurodbiy Marvga 5000 kishilik qo'shin jo'natadi, amirlik askarlari Marvni egallab, u yerdan 1000 kishini olib Buxoroga qaytishadi.¹²

1787-yilda nihoyat Buxoro amirligida ko'plab muhim tarixiy voqealar yuz berdi. Shohmurodbiy davlat taxtiga qo'yilgan qo'g'irchoq xon Abdulg'ozixonni taxtdan ag'darib, o'zini rasman diniy hukmdor ya'ni "Amir ul-mo'miniyn" deb e'lon qildi. Amir Shohmurod chingiziy va noislomiy

¹² <http://greylib.align.ru>

qonun-qoidalarini barchasini bekor qilib, mamlakatga shariat qonun-qoidalarini o'rnatdi. Hech bir siyosiy kuch Amir Shohmurodning bunday ishlariga mone'lik qila olmadi. Chunki butun xalq va harbiy qo'shin Amir Shohmurodni qo'llab-quvvatlayotgan edi. Amir Shohmurod endilikda butun mamlakatni so'zsiz markazlashtirishga bor e'tiborini qaratdi. O'gillari va eng ishonchli vakillarini itoatsizlikka moyil bo'lgan hududlarga tayinlab, mahalliy zodagonlar, hamda qabila boshliqlarining uyushgan holda isyon ko'tarishlariga chek qo'ydi. Xususan, Amir Shohmurod to'ng'ich o'g'li Haydarbiyni Qarshi bekligiga, o'rtancha o'g'li Din Nosirbiyni Marvga, kenja o'g'li Muhammad Husaynni esa Samarqandga hokim etib tayinlaydi. Aynan o'sha yilda Amir Shohmurod mustaqillikka erishgan Jizzax, O'ratepa, Yom, Xavos, Urgut va boshqa kichik hududlarni harbiy kuch bilan egalladi va u yerlarda yashayotgan mahalliy aholining bir qismini Samarqand shahriga zo'rlik bilan ko'chirib o'tkazadi. Shu qisqa vaqt ichida mustaqillikka intilgan barcha hududlar poytaxt Buxoroga bo'yso'ndirilib markazlashtirildi. Bunga albatta qattiqqo'l va qat'iyatli Amir Shohmurodning oqilona siyosat yuritishi va tadbirkorligi muhim omil hisoblanadi.

1787-1788 yillarda Amir Shohmurod Afg'on podshosi Temurshoh Durrioniya qarshi g'alabali harbiy yurishlar qilib, 1752-yilda Ahmadshoh Durroniy tomonidan bosib olingan Buxoro davlatiga tegishli to'rt viloyat Andxoy, Shiberg'on, Saripul va Axchani qaytarib oldi.¹³

Amir Shohmurod o'zini "Amir ul-mo'miniyn" deb rasman e'lon qilishi va shariatning asosiy davlat qonuni sifatida o'rnatilishi bilan mamlakatdagi barcha din peshvolari amirni qo'llab-quvvatlashdi, aholining barcha qatlamlariga kirib borib, amirga so'zsiz bo'y so'nish lozimligi to'g'risida targ'ibot olib borishdi, bu bilan amirning hukmronligini saqlashga katta

¹³ Азамат Зиё "Ўзбекистон давлатчилиги тарихи" Т.; 2001-й

xizmat qildilar. Bundan tashqari mazkur yilda Amir Shohmurod Buxoro xalqiga tarxon yorlig'ini taqdim etadi, unga ko'ra buxorolik fuqarolar soliq to'lashdan ozod etiladi. Amir Shohmurod shu paytga qadar amirlikda amal qilingan barcha noislomiy soliqlar — yorg'u, boj, tusma, yasoq, oliq-soliq kabi soliqlarni, bepul ishlab berish tartiblarni bekor qildi. Faqat hiroj va zakot soliqlari saqlab qolindi. Mana shundan so'ng butun xalq yana ham Amir Shohmurodga ishonch bildirishdi, unga “Amiri Ma'sum” deya ulug' nom berib e'zozlashdi. Chunki shu vaqtga qadar o'zbek xonligi tarixida hech bir hukmdor bunday keskin qaror chiqarmagandi, amaldagi ko'p soliqlardan kechish davlat xazinasiga putur yetkazish ehtimoli kuchli bo'lsada, Amir Shohmurod xazinasini deyarli hech narsa yo'qotmadi. Xazinaga hiroj va zakot soliqlaridan tushib turgan daromad mamlakatni idora qilish, qurilish va obodonchilik ishlariga, hamda harbiy yurishlarni uyushtirishga yetib turgan. Xazina bo'yicha hisob-kitob ishlarini shaxsan Amir Shohmurodning o'zi muntazam ravishda nazorat qilib borgan. Umuman olganda faqatgina davlatni markazlashtira olgani, tinchlikni o'rnatgani, Buxoro ahliga tarxon yorlig'ini taqdim etishi, amirlik fuqarolari uchun ko'p soliqlar va bepul ishlab berish tartibini bekor qilgani, shariatni oliy qonun darajasiga chiqargani yoki bo'lmasa amir bo'lib turib ham kamtarona hayot kechirishi bilangina Amir Shohmurod xalq mehriga, ardog'iga sazovor bo'lgan emas albatta, uning hukmronlik davrida ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirildi. Amir Shohmurodning islohotlari va ularning natijasida amirlikning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, qishloq xo'jaligi sohalarining rivojlanishi xalq turmush darajasining yuksalishiga va amir obro'sining oshishiga olib keldi.

1.2. Amir Shohmurod o'tkazgan islohotlarning omillari va ularning ahamiyati.

Amir Shohmurod hukmronligining dastlabki yilidayoq mamlakatda bir qancha siyosiy o'zgarishlarni amalga oshirdi va davlat ahamiyatiga molik muhim islohotlar o'tkazdi. Xo'sh bu qanday islohotlar va ularni nega amalga oshirildi? Amir Shohmurod markazlashtirish siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish va davlatni rivojlantirish maqsadida davlat va xalq ehtiyojlarini o'rganib chiqib islohotlar o'tkazadi.

Amir Shohmurod o'tkazgan islohotlar quyidagilar:

1. Pul islohoti;
2. Ma'muriy islohot;
3. Harbiy islohot;
4. Sud-huquq islohoti.¹⁴

Bu islohotlar o'tkazilishining o'ziga xos alohida sabablari bo'lsada, ularning mazmun-mohiyati — davlatni markazlashtirish va ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalarni tiklashdan iborat edi. Amir Shohmurod pul, ma'muriy, harbiy islohotlarini hukmronligining dastlabki yilida o'tkazdi, sud-huquq islohotini 1787-yilda o'zini rasman amir deb e'lon qilganidan so'ng o'tkazdi.

Yuqorida keltirib o'tilgan Amir Shohmurodning islohotlaridan pul islohoti tarixda ko'p mashhur bo'ldi. Amir Shohmurod mang'itlar sulolasi vakillari orasida birinchi bo'lib yangi pul sistemasiga asos soldi, u 1785-1800-yillar davomida to'la qimmatga ega bo'lgan “ashrafi” yoki tillo deb nomlangan oltin tanga, kumush va mis pullarni zarb qildi. Bu an'ana butun Buxoro amirligi hukmronlik qilgan davrdan boshlab, Buxoroda tanga pullarni zarb qilish to'xtatilgan 1904-1905 yillargacha davom etdi. 1785-yilga qadar

¹⁴ Shamsutdinov R. “Vatan tarixi” 2-jild, T.; 2012

Buxoro davlatida ashtarxoniylar zarb etgan tarkibida aralashmasi ko'p va sof bo'lmagan kumush tangalar muomilada bo'lib kelgan. Mazkur tangalarning ko'rinishi to'la yumaloq bo'lmagan shaklda va tanganing faqat markaziy qismidagi yozuvlarga qisman o'qilishi mumkin bo'lgan.¹⁵

Amirlik aholisining barcha qatlami eski siyqa tangalardan charchab, qiymati yuqori tangalarga anchadan beri ehtiyoj sezib kelayotgan edi. Chunki ashtarxoniylar davrida zarb qilingan tangalar o'z qiymatini yo'qotib bo'lgan, bu esa o'z navbatida savdo-sotiq, hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi kabi sohalarning rivojlanishiga juda salbiy ta'sir ko'rsatyotgan edi. Xuddi mana shu vaziyatdan Amir Shohmurod unumli foydalanadi, ashtarxoniy Abdulg'ozixon qo'llab-quvvatlashi orqali pul islohotini o'tkazadi. Amir Shohmurod "Amir Doniyol" nomi ostida ilk tangalarini sof oltin va kumushdan zarb ettiradi. Umuman olganda Amir Shohmurod butun hukmronligi davomida faqat otasi nomidan tangalar zarb etishni buyurgan, o'z ismini tangalar hamda xutbada keltirilishini taqiqlab quygan. Aslida o'sha davrning hukmronlik qonun-qoidasiga ko'ra, pul zarb etishga faqat chingiziy avlodidan bo'lgan xongina haqli bo'lgan. Abdulg'ozixonning "ruxsati" bilan mang'itlar sulolasiga tegishli dastlabki tangalarini zarb etishga erishgan Amir Shohmurod markazlashtirish siyosatini amalga oshirishdagi birinchi dadil qadamni tashladi. U zarb etgan tangalarni oddiy xalq: hunarmandlar, dehqonlar, savdogarlar, chorvadorlar, shuningdek unchalik katta bo'lmagan zodagonlar qatlami ham mone'lik qilmasdan qabul qildi va tez orada butun amirlik bo'ylab faqat ashrafi tangalar amalda muomilaga kirdi. Shunday qilib, amirlikdagi ko'pchilik mahalliy qabilalar mang'itlar sulolasi hukmronligini tan olishdi.

Manbalarda keltirilishicha, Doniyolbiy otaliq tabiatan samimiy va ko'nglibo'sh inson bo'lsada, hukmdor sifatida obro'siz bo'lgan. Amir

¹⁵ www.uz.wikipedia.org

Shohmurod esa otasining ismidan pul zarb etishdan foydalanib, shu yo'l bilan o'z otasining siyosatdagi mavqeini oshirish orqali ya'ni g'oyaviy tomonlama mang'itlar sulolasi hukmronligini mustahkamlashga harakat qilgan. Amir Shohmurod zarb ettirgan barcha tangalarda "Amir Doniyol" deb yozilgan, lekin aslini olganda Doniyolbiy amir emas balki otaliq lavozimida bo'lgan. Amir Shohmurod otasining ismi oldiga amir so'zini quyib pul zarb ettirishi maqsadlaridan biri o'zini amirzoda ekanligini va shu davlatning qonuniy egasi ekanligini hammaning ongiga singdirish edi. O'zining nomidan nega tanga zarb etmaganini so'filylikka sodiqligi bilan izohlash mumkin.

Amir Shohmurodning tangalari mamlakat bo'ylab tez tarqalishiga yana bir sabab, amir har bir shaxsning kumush tangalarni o'zi mustaqil zarb qilishiga sharoit yaratib berishidir. Fuqarolar esa o'z navbatida foiz hisobida bu ishi uchun davlat xazinasi foydasiga haq to'lashi ham kerak edi.¹⁶

Amir Shohmurod zarb ettirgan tangalar vazni, yuza o'lchovi, probasi, zarb etish texnikasi, unda qayd etilgan yozuvlari bilan oldingi eski tangalardan keskin farq qilgan. Amir Shohmurodning dastlabki tangalari sof kumushdan bo'lgan, 1787-yildan sof oltin tangalar zarb etilib, muomilaga kiritilgan, faqatgina hukmronligining so'nggi yillarida misdan tangalar zarb ettirgan. Amir Shohmurod davrida zarb etilgan bitta tanganing og'irligi 7/10 misqolni ya'ni 3,36 grammni, yuza o'lchami 9/10 dyuym ya'ni 25,4 smni tashkil etgan. Buxoro amirligida oltin tangalar "tillo" yoki "ashrafi", kumush tangalar "tanga", mis tangalar esa "fulus" yoki "pul" deb atalgan, 1 tillo 22 tangaga, 1 tanga 50 pulga teng bo'lgan.¹⁷

¹⁶ Эпиграфика Востока, 1967 г., 18 выпуск, Бурнашева Р., "Монеты Бухарского ханства при Мангытах (середины 18-начало 20 в.)

¹⁷ Эпиграфика Востока, 1972 г., 21 выпуск, Бурнашева Р., "Монеты Бухарского ханства при Мангытах (середины 18-начало 20 в.)

Amir Shohmurod o'tkazgan pul islohoti natijasida mamlakatning ichki va tashqi savdosi oldingi davrdan sezilarli darajada ancha o'sdi, bu esa hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi rivojiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Amir Shohmurod tangalarining ko'p miqdorda zarb etilishi oltin va kumush tanqisligiga olib keldi, lekin buxorolik savdogarlarning sa'y harakatlari bilan chetdan katta miqdorda oltin va kumush olib kelishi natijasida bu muammo o'z vaqtida deyarli hal bo'lgan.

Amir Shohmurodning ma'muriy islohoti ham hukmronligining dastlabki yilida o'tkazildi. Bu islohotning mohiyati shundaki, bunda ashtarxoniyalar davrida ta'sis etilgan mavjud lavozimlar o'rganib chiqilib, davlat ehtiyojiga qarab saralanib, ortiqcha lavozimlar bekor qilingan, yuqori lavozim va mansablarning vakolatlari doirasi qisqartirilgan, umuman saroyning yirik amaldorlari hukmdorga bo'y so'nishi lozimligi qonuniy hujjat bilan aniq qilib quyilgan. Ma'muriy islohotni tez va oson o'tkazish uchun Amir Shohmurod otasi Doniyol otaliq davridan Buxoroda qozikalonlik qilib kelgan Nizomiddin Sayyid va Davlat qo'shbegilarni o'z qo'li bilan qatl etadi.¹⁸ Birinchidan, ular Amir Shohmurodga qarshi ochiqdan ochiq harakat qilishgan. Saroydagi dushmanlardan xolos bo'lmay turib, markazlashtirish siyosatini yuritib bo'lmas edi. Ikkinchidan, ma'muriy islohot amalga oshirilishida ular halaqit berishi, agar islohot salbiy natija bilan tugasa Amir Shohmurod mavqeiga putur yetishi mumkin edi. Uchinchidan, ular yuqori davlat lavozimida turib butun faoliyati davomida juda ko'p shariatga zid keladigan ishlar bilan shug'ullanishgan va ular o'sha davrning qonunlariga muvofiq o'lim jazosiga loyiq edi va bunday hukmni Amir Shohmurodning o'zi chiqarib, o'zi ijro etdi. Ma'muriy islohot o'tkazishda Amir Shohmurod ehtiyotkorlik va qattiqqo'llik bilan yondashadi, chunki aynan shu islohot uning keyingi faoliyatini belgilab berishi mumkin edi. Amir Shohmurod

¹⁸ Shamsutdinov R. "Vatan tarixi" 2-jild, T.; 2012

davlat lavozimidagilarning ko'pchiligini o'zining ishonchli kishilari bilan almashtiradi. Ma'muriy islohotni o'tkazish orqali Amir Shohmurod o'zi istagan muhitga, qo'llab-quvvatlovchi kuchga ega bo'ldi, bundan tashqari bemalol markazlashtirish siyosatini amalga oshirish imkoniga ega bo'ldi. Shu sababli Amir Shohmurod 1785-1787 yillar davomida butun davlatni qo'l ostida birlashtirdi, o'zining cheklanmagan hokimiyatini o'rnatdi va bemalol o'zini rasman mamlakatning yagona hukmdori amir deb e'lon qila oldi. Oqilona ma'muriy islohot o'tkazilishi o'sha davr uchun juda ham zarur edi. Chunki ko'pgina amaldorlar axloqsiz va jinoiy ishlar bilan shug'ullanishgan, davlatning taraqqiyotiga to'sqinlik qilishgan, hatto ba'zida davlat xazinasini ham talashgan, eng yirik amaldorlarning vakolati kengayib, xon siyosatiga bevosita qo'rqmasdan aralashib turishgan. Davlat uchun keragi bo'lmagan lavozimlar ham mavjud bo'lib, davlat xazinasiga faqat ziyon keltirgan. Ana shunday salbiy holatlar Amir Shohmurodning ma'muriy islohoti o'tkazilishi natijasida bartaraf etildi, hamda davlatda tartib va adolat o'rnatildi.

Markazlashtirish siyosatini amalga oshirishda Amir Shohmurod uchun tartibli va qudratli qo'shin zarur edi. Shuning uchun amirlikda 1785-yilda harbiy islohot o'tkaziladi. Bu islohotga ko'ra amirlik qo'shini intizomi bo'yicha yangi qonunlar ishlab chiqildi, harbiy bo'linmalarga bo'linish, jangovar saf tortish va boshqalar bo'yicha yangi tartiblar o'rnatildi. Bundan tashqari yangi qurol-yarog'lardan foydalanish yo'lga qo'yildi. Amirning shaxsan o'zi barcha harbiy boshliq va askarlar bilan suhbatda bo'lib, qo'shinda mavjud kamchiliklarini aniqlab, bartaraf etdi. Doniyolbiy otaliq davrida davlat qo'shiniga ko'plab imtiyozlar va yer-mulk ajratilgan edi, shunga qaramay "siylangan" lashkar ishonchni to'la oqlamay kelgan. Harbiy islohot natijasida o'z burchiga sodiq bo'lmagan ma'suliyatsiz harbiy boshliq va askarlar lavozimlaridan chetlashtirilgan, ularning davlat tomonidan berilgan yer mulkka bo'lgan huquqlari bekor qilingan,

Amirlik qo'shini asosan otliq askarlardan iborat bo'lib, bu qo'shin navkarlar va qoracherikdan tuzilgandi. Qo'shin to'p, qilich, pilta miltiq, nayza va o'q-yoy bilan qurollangan.¹⁹ Harbiy yurishlarga amirning o'zi qaror qilsada, lekin bu qaror majlisda muhokama qilinib, keyin aniq bir fikrga kelingan. Harbiy yurishlarning ko'pchiligini Amir Shohmurodning o'zi boshqargan. Harbiy yurish yo'naltirilgan hudud mukammal o'rganilib, keyin harbiy rejalar tuzilib, vazifalar taqsimlangan. Shuni ham ta'kidlash lozimki Amir Shohmurod jang vaqtida umuman sovut, dubulg'a kabi harbiy kiyim kiyimagan va qurollardan foydalanmagan, oddiy musulmon kiyimida jangni kuzatgan.²⁰ Amir Shohmurod garchi harbiy sarkarda bo'lmasada, oliy harbiy boshliq sifatida mavqei juda ham baland bo'lgan, mana shu narsa qo'shından muammosiz foydalanish imkonini bergan edi. Amir Shohmurod lashkarining haqiqiy egasi bo'lgan, uning buyruqlari so'zsiz bajarilgan. Harbiy islohot o'tkazilishi o'zini oqladi va Amir Shohmurodning muvaffaqiyatli harbiy yurishlar qilishini ta'minladi. Tom ma'noda harbiy islohot amirlikning qo'shini kuchiga kuch qo'shgan edi. Amir Shohmurod har tomonlama o'ta tadbirkor va aqlli hukmdor bo'lgani bois o'zi istagandek uyushgan harbiy qo'shinga ega bo'ldi va undan oqilona foydalana oldi. Shu qo'shin orqali Shahrisabz va O'ratepaday mustaqil hokimlilar, Karmana, Urgut, Jizzaxdagi isyon ko'targan mahalliy zodagonlar qarshiligi bo'yso'ndirildi, Afg'on podsholigi bosib olgan viloyatlar qaytarib olindi, Marv va Balx zabt etildi. Bularning barchasi qariyb 5-yil ichida amalga oshirildi va natijada markazlashtirish siyosati muvaffaqiyatli tugadi. Faqat Eronning Xuroson viloyati uchun jang chegara hududlari va Mashhad atrofini talash, o'ljalar bilan Buxoroga qaytib ketish bilan tugagan xolos. Amir Shohmurodning Xurosonni egallashga qaratilgan harakatlari muvaffaqiyatsizlikka uchrab,

¹⁹ www.ru.wikipedia.org

²⁰ <http://greylib.align.ru>

hudud zabt etilmay qolgan. Albatta harbiy yurishdan tashqari mamlakatning ichki siyosatini yuritish, ijtimoiy va madaniy hayotni ko'tarish, qishloq xo'jaligini tiklash, ichki va tashqi savdo-sotiqni rivojlantirish kabi ishlar amirdan ko'p ma'suliyat va vaqtni talab qilgan. Xullas, Amir Shohmuroddek islohot o'tkazib, ijobiy natijalarga ega bo'lgan hukmdorlar o'zbek davlatchiligi tarixida kam uchraydi.

Endi Amir Shohmurod o'tkazgan sud-huquq tizimidagi islohotga e'tibor beradigan bo'lsak, bu islohot 1787-yilda shariat qonunlari davlat qonunlari darajasiga chiqarilgandan so'ng o'tkazildi. Albatta bu islohot shariat bilan bevosita bog'liq bo'lib, islohotga ko'ra fuqarolarning barcha huquqlari va da'volari shariat asosida ko'rib chiqilishi amir tomonidan kafolatlangan. Amir Shohmurod tomonidan o'tkazilgan sud-huquqiy islohotlarning muhim jihati shundaki, bu davrga kelib qozining hukmidan norozi bo'lgan taraf qozikalonga yoki amirga shikoyat qilish huquqiga ega bo'ldi. Qozikalonga yoki amir nomiga yozilgan shikoyatnoma o'rganib chiqilib, qozining hukmini asosli ravishda qozikalon bekor qilishi hamda qozikalon qarorini faqat amir bekor qilishi mumkin edi.²¹

Amir Shohmurod tomonidan o'tkazilgan sud-huquqiy islohotlar o'sha vaqtda nafaqat Buxoro Amirligida, balki boshqa xonliklarda ham sud va sudlovni ijobiylashtirish uchun ulkan qadam edi. O'z navbatida Amir Shohmurod sud idoralarining qayta tuzilishi, tashkil topishi va quyi sud idoralari qozilarning tayinlanishi kabi yangiliklarni amalga oshirgan edi. O'sha davrda sud idoralarini isloh qilish maqsadida Amir Shohmurodning bevosita tashabbusi bilan qirq a'lamdan ya'ni qonunshunoslardan iborat tarkibda oliy sud qozixona palatasi tuzildi. Usha palataning a'zolari, ya'ni qonunshunoslar shariat qonun qoidalari, Amir Shohmurod tomonidan tuzilgan qoidalar to'plami asosida quyi sud idoralari qozilarining hukmidan

²¹Азамат Зиё “Ўзбекистон давлатчилиги тарихи” Т.; 2001-й

norozni bo'lib yozilgan arz va shikoyatnomalarni ko'rib chiqar edilar. Amir Shohmurod tomonidan o'tkazilgan sud-huquqiy islohotlarining yana bir muhim yangiligi, bu oliy sud palatasida qirq a'lam ya'ni qonunshunoslar ishtirokida ko'rilayotgan arz yoki shikoyatnomada da'vogarning shaxsan o'zi ishtirok etishining talab qilinishi bo'ldi. Shunday qilib, Amir Shohmurod davrida Buxoro Amirligida yangi sud tizimi: qasaba (kattaroq qishloq), tuman qozilari, Bosh qozi va qirq a'lam sudi vujudga kelib, eng oliy qozi amirning o'zi edi.²²

Amir Shohmurodning sud-huquq tizimidagi islohotining diqqatga sazovor jihati shundaki, islohotga ko'ra, hatto qullar ham o'z xo'jayinlari ustidan qozilarga arz qilishi mumkin bo'lgan.²³ Shundan ko'rinib turibdiki, islohot o'ziga xos adolat va demokratik tamoyillarga asoslangan. Umuman, Amir Shohmurodning ichki siyosati markazlashtirish mazmunida bo'lsada, unda xalqparvarlik va insonparvarlik jihatlarini ko'p ko'zatish mumkin. Shariat huquqi asosida Shohmurod tuzgan qoidalar to'plami diqqatga sazovordirki, uni izlab topish va ilmiy jamoatchilikka yetkazish olimlarimiz oldidagi vazifalardan biri bo'lib turibdi. Chunki biz O'zbekistonda hukm surgan sulolalardan chiqqan davlat boshliqlari qo'li bilan tuzilgan qoidalar to'plamlarini juda kam uchratamiz.

²² Азамат Зиё “Ўзбекистон давлатчилиги тарихи” Т.; 2001-й

²³ Shamsutdinov R. “Vatan tarixi” 2-jild, T.; 2012

1.3. Amir Shohmurod davrida davlat tuzilishi, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot.

Buxoro davlat tuzumiga ko'ra monarxiya davlati edi. Davlat tepasida amir, ya'ni yakka mustabid hukmdor turgan. Hukmdor rasman cheklanmagan huquqqa ega bo'lib, butun hokimiyat uning qo'lida to'plangan. U davlatni o'zi ishongan eng oliy toifadagi amaldorlar—arkoni davlatga tayanib idora qilgan. Hukmdor amalda davlatni boshqarishda eng nufuzli qabilalarning boshliqlari bilan hisoblashib ish tutgan.

Buxoro amirligi ma'muriy jihatdan viloyatlarga va tumanlarga bo'lingan. Chunonchi, ba'zi adabiyotlarda amirlik davlati 30 viloyat va tumanliklardan, boshqa adabiyotlarda 27 beklikdan²⁴ iborat bo'lganligi haqida ma'lumot beriladi. Amirlikning yer maydoni Amir Shohmurod davrida taxminan 270 ming km² ziyod bo'lgan, aholisi haqida ham aniq ma'lumot bo'lmasada XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida Buxoro amirligi aholisi 2 mln atrofida bo'lgan degan taxminlar mavjud.²⁵ Aholisini o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qolgan qismini esa qoraqalpoqlar, qozoqlar va boshqa xalqlar tashkil etgan. Amir tayinlaydigan hokim boshqaradigan hudud viloyat deb atalgan. Amirlikning poytaxti Buxoro shahri bo'lib, Amir Shohmurod Buxoro shahri va viloyatini o'zi bevosita boshqargan, uning hukmronligidan keyin qo'shbegilarning mavqei ortib, ular Buxoro shahri va viloyatini boshqargan²⁶. Amirlikning alohida davlat xazinasini bo'lmagan, xazina amirning mulki bo'lgan. Amir Shohmurod xazina ishlariga ehtiyotkorlik

²⁴ Азамат Зиё “Ўзбекистон давлатчилиги тарихи” Т.; 2001-й

²⁵ Shamsutdinov R. “Vatan tarixi” 2-jild, Т.; 2012

²⁶ Азамат Зиё “Ўзбекистон давлатчилиги тарихи” Т.; 2001-й

bilan e'tibor bergan. Soliqlarning kamaytirilishi va davlat xarajatlarining ko'pligi tufayli xazinadan oqilona foydalanish jiddiy talabga aylangan edi.

Amirlikning davlat muassasalari ma'muriy, moliya, qozilik, mirshablik va harbiy idoralardan iborat bo'lgan. Ularning har biriga tayinlangan amaldor rahbarlik qilgan. Buxoro xonligi saroyida 30 ga yaqin amaldor xizmat qilgan. Mahalliy boshqaruv muassasalarida xizmat qiluvchilarning soni 30 ming atrofida bo'lgan. Bundan tashqari, bekklik — viloyat tepasida mahalliy qabila boshliqlari turardi. Markaziy hokimiyatda devonbegi, ko'kaldosh, qo'shbegi, mushrif, mirshab, dodxoh, inoq, miroxur, dasturxonchi, kitobdor, to'qsabo, parvonachi, sadr, shayxulislom, qozikalon, muftiy, muhtasib kabi yuqori martabali lavozimlar joriy etilgan.

Eng katta davlat lavozimi — qo'shbegi, vaziri buzruk ya'ni Bosh vazir lavozimi edi. Qo'shbegi amir Arkida yashagan. Devonbegi — xonlikning moliya-xazina ishlarini boshqargan. Soliqlar undirilishi ustidan nazorat olib borgan. U Ark etagida yashagan. Ko'kaldosh — butun amirlik hududida do'stona yoki dushmanlik munosabatida bo'luvchilar haqida ma'lumotni to'plagan. Mushrif — amaldorlar xonga in'om etgan buyumlarni hamda harbiy anjomlarni ro'yxatga olgan. Soliq tushumlarini yozib borgan. Mirshab — tungi shahar soqchilari boshlig'i vazifasini bajargan. Dodxoh — fuqarolarning arz va shikoyatlarini tinglovchi va hal etuvchi amaldor bo'lgan. Inoq — vazifasi amir farmoyishlarini beklardan boshqa tabaqaga yetkazishdan iborat bo'lgan. Miroxur — amir otxonasining boshlig'i bo'lgan. Dasturxonchi — amir huzurida uyushtiriladigan ziyofatlar uchun mas'ul amaldor. Kitobdor — amir kutubxonasi boshlig'i. To'pchiboshi — amirlikning harbiy vaziri hisoblangan. Amir Shohmurod bu lavozimga eng ishonchli, sinalgan, nufuzli kishini tayinlagan. To'qsabo — harbiy qism sarkardasi. Parvonachi — biror-bir shaxs biror lavozimga tayinlanganida yorliqni o'sha shaxsga yetkazuvchi amaldor. Amir Shohmurodning ma'muriy

islohoti o'tkazilgan davrda ko'p amaldorlar almashtirilgani bois parvonachining xizmatidan ko'p foydalanilgan. Sadr — vaqf mulklarini boshqaravchi. Amir Shohmurod vaqf mulklarini tiklab, kengaytirgach sadrlarning nufuzi oshgan. Shayxulislom — musulmon jamoasi boshlig'i; qozilik ishlarida hamda kundalik hayotda qonunlarga rioya etilishini ta'minlovchi, hukmdorning eng yaqin kishisi. Bu lavozim avloddan avlodga meros bo'lib ham o'tgan. Manbalarda qayd etilishicha, Amir Shohmurodning shaxsan o'zi ko'p hollarda shayxulislom vazifasini ham bajargan. Poytaxt qozisi (qozikalon) — davlatning oliy qozisi (sudyasi) amir aralashmaydigan barcha qozilik ishlariga rahbarlik qiluvchi oliy davlat lavozimi. Qozikalon „shariatpanoh“ deb ham atalardi. Qozikalon huzurida a'lam va 12 muftidan iborat devon tuzilgan edi. Uning vazifasi jinoiy ishlarni sinchiklab ko'rishdan iborat bo'lgan. Amir Shohmurod o'z hukmronligi davrida qozikalonlar ishini nazorat qilib borgan, uning ishlariga bemalol aralasha olgan. Amir Shohmurod sud islohotidan keyin qozikalon huzurida 40 ta a'lam faoliyat yuritgan. Muftiy — qozikalon murakkab deb hisoblagan turli diniy-huquqiy masalalar bo'yicha shariatga asoslanib, fatvo chiqaruvchi shaxs. Muftiy faoliyati ham Amir Shohmurod nazoratida bo'lgan, chunki amir shariatni buzuvchi noto'g'ri qaror va fatvolarga qarshi qattiq kurashgan.

Muhtasib ya'ni rais — musulmonlar tarafidan shariat qonunlarining bajarilishini kuzatuvchi, bozorlardagi tosh-tarozining to'g'riligini tekshiruvchi amaldor. Ushbu lavozimni Amir Shohmurodning o'zi ta'sis etgan. Bundan tashqari, Amir Shohmurod qozi askar lavozimini ham joriy qilgan, ushbu lavozim egasi harbiy qismlardagi qonun-huquqlarning buzulishi va adolatsizlik masalalarini shariatga asoslanib hal qilgan. Xullas, amirlikdagi yuqori davlat lavozimlari o'sha davrdagi boshqaruv tizimiga to'la mos bo'lib, amirning yakka hukmronligini ta'minlar edi.

Buxoro davlatida yer-suv mulkchiligining uch shakli mavjud edi:

- 1) davlat yerlari (bu amlok yerlar deb ham atalgan);
- 2) mulk yerlari (xususiy);
- 3) vaqf yerlari.

Davlat yerlarining suvsiz dasht, to'qayzor qismi ko'chmanchi jamoalarga bo'lib berilgan bo'lib, ular bu yerlardan foydalanganliklari uchun davlatga xiroj to'lar edilar. Bunday yerlar sotilmasdi va ayirboshlanmasdi. Davlat yerlarining boshqa bir qismi hukmron sulola a'zolariga, yirik davlat mansabdorlariga, lashkarboshilariga davlat oldidagi xizmatlari evaziga suyurg'ol shaklida in'om etilgan edi. Suyurg'ol olganlar u yerni boshqarish huquqini ham olganlar. Suyurg'ol egasi davlat xazinasiga xiroj to'lashi hamda oliy hukmdorning chaqirig'iga ko'ra o'z qo'shini bilan harbiy yurishlarda ishtirok etishi lozim edi.

XVI asrdan boshlab davlat yerlarini „tanho“ deb nom olgan shaklda in'om etish qaror topa borgan. Bunday in'omga sazovor bo'lgan kishi yerga emas, shu yerdan olinadigan soliqqa egalik qilgan. Amir Shohmurod “tanho” mulkiga ham jiddiy qaragan, isrofgarchilikka yo'l quymagan. XIX asrning birinchi choragida amirlikda tanholarning soni 12 mingdan 36 ming nafarga yetgan. Eng kichik tanho yeri 3 - 5 gektarni tashkil etgan. Davlat yerlarining yana bir qismi dehqonlarga ijaraga berilgan. Xazinaga eng ko'p soliq ham ana shu yerlardan tushar edi.

Xususiy yerlar (mulk) ning bir qismi xususiy shaxslarning yerlari bo'lib, ularning bu yerlarga egalik qilishlari davlat xizmati bilan bog'liq bo'lmagan. Bunday yerlar, asosan, amirlikda asrlar osha yashab kelayotgan arablarga qarashli yerlar bo'lgan. Bu yerlardan 1/10 qismi miqdorida o'lpon to'lanardi. Mulk yerlarining ikkinchi qismi (mulki hur yoki mulki hurri xolis) davlat xizmati bilan bog'liq bo'lib, bunday yerlar urushlarda jasorat ko'rsatgan yoki hukmdorning alohida topshiriqlarini bajarishda namuna ko'rsatgan shaxslarga berish natijasida vujudga kelgan. Bunday yerga ega

bo'lgan shaxslarga maxsus yorliqlar berilgan hamda ular barcha soliqlardan ozod etilganlar.

Vaqf yerlari — bu masjid, mozor, xonaqoh, madrasa va maqbaralar uchun ajratilgan yerlar edi. Bunday yerlar musodara etilgan, davlat hamda yirik yer egalari tomonidan hadya etilgan yerlar hisobiga vujudga keltirilar edi. Masjid, madrasa, qabristonlarning asosiy sarf-xarajatlari, shuningdek, talaba, mudarris hamda mutavallilarga beriladigan nafaqa va maoshlar vaqf yerlaridan olinadigan daromad hisobidan qoplanar edi. Vaqf mulkini mutavalli tasarruf etishi belgilab qo'yilgan edi. Doniyolbiy otaliq hukmronligi davrida vaqf mulklari og'ir ahvolga kelib qolgan edi. Amir Shohmurod taxtga kelgach, vaqf mulklarini tiklab, faoliyatini yo'lga quydi. Uning davrida ko'p madrasalar, masjidlar va xonaqohlar faoliyati tiklandi, xaroba bo'lib qolgan maqbaralar va mozorlar obodonlashtirildi.²⁷

Buxoro amirligi soliq tizimiga ham ahamiyat berilgan, Amir Shohmurodga qadar ham, uning hukmronligi tugagandan keyin ham soliqlar soni ko'p bo'lgan. Amir Shohmurod zamonida har bir ziroatchidan qo'shpuli²⁸ olingan. 1807- yili amir Haydarning bir yorlig'ida har tanob²⁹ yerdan bir tillodan tanobona olinishi zarurligi ko'rsatilgan. Agar ekinzor egasi tanobona to'lashdan bosh tortsa, hosilning uchdan bir qismi mol (xiroj) tariqasida olingan. Ba'zida xiroj hosilning yarmini tashkil etgan. XV — XVII asrdan zakot solig'i beva-bechoralar, musofirlar foydasiga olingan bo'lsa, XVIII asrdan boshlab xazina foydasiga olinadigan bo'ldi.

²⁷ Азамат Зиё “Ўзбекистон давлатчилиги тарихи” Т.; 2001-й

²⁸ Qo'shpuli — 48-50 tanob yerdan 40 tiyin olinadigan soliq.

²⁹ Tanob (chilvir, arqon): ekin maydonini o'lchash uchun qo'llaniladigan yuza birligi. Tanob yer maydoni 8,33 sotixga teng bo'lgan 1 ga yer esa 12 tanobni tashkil etgan.

Kanallar, inshoot, qal'a, ko'priklar, yo'llar ta'miri hashar yo'li bilan amalga oshirilgan. Boshda hasharchilar oziq-ovqat bilan ta'minlangan. XVIII asrdan boshlab hasharga keluvchilar oziq-ovqati, ish asboblari, ot-aravasi bilan kelishi lozim bo'lgan. Lekin Amir Shohmurod davrida hashar ishlari uchun xazinadan pul ajratilgan.

O'rta Osiyoda, jumladan, Buxoro davlatida ham qishloq xo'jaligining taqdiri sun'iy sug'orishning qanchalik to'g'ri hal etilganligiga bog'liq edi. Shuning uchun ham XVIII asrda Amir Shohmurod davrida sug'orish tarmoqlarining kengaytirilishiga alohida e'tibor berildi. Zarafshon daryosida Xurmo va Sarazm nahr(ariq)lari chiqarilgan. Ularning biri to'rt chaqirim, ikkinchisi uch chaqirim uzunlikda bo'lgan. Yana Urgut tumanini sug'organ 40 chaqirim uzunlikdagi Qozonariq, 24 chaqirim uzunlikdagi Toyman arig'i, 24 chaqirim uzunlikdagi To'g'uzariq qazilgan, hamda Oqdaryo va Qoradaryodan ham nahrlar chiqarilgan.³⁰

Sug'orish inshootlarini yaroqli holda saqlashning og'ir yuki mehnatkashlar gardanida edi. Aynan ularning matonatli mehnati, sabr-toqati, sug'orish inshootlarining muqim ishlashini ta'minlar edi. Dehqonlar suvdan foydalanishda asrlar davomida juda katta tajriba to'plagan edilar. Ular shunday sug'orish inshootlarini bunyod eta oladilarki, unga tan bermaslikning iloji yo'q edi. Xususan, suv ayirg'ich to'g'oni qurishdagi mohirlik buning isbotidir. Masalan, suv oqimi qiya va tez bo'lgan tog' daryolari hamda soylarda suv ayirg'ichlar, tinch oqadigan daryolarda shox-shabbadan qurilgan to'g'onlar, Amudaryodek chuqur va tezoqar daryolarda esa ko'p boshli suv ayirg'ichlar qurganlar. Ayrim joylarda esa yirik to'g'onlar qurilgan.

³⁰ Азамат Зиё “Ўзбекистон давлатчилиги тарихи” Т.; 2001-й

Daryo va kanallarga o'rnatilgan chig'irig eng ko'p ishlatiladigan suv ayirg'ich edi. Shunday chig'iriqlar ham yaratilganki, ular suvni hatto 4 metr va undan ham balandga chiqarib bera olardi. Suvni chuqur ariqlardan chiqarib olish uchun tutqichli suv ayirg'ichlar ishlatilar, bunda ot, tuya, eshak va ho'kiz kuchidan foydalanilar edi. Dehqonchilik mehnat qurollari nihoyatda sodda edi. Oddiy dehqon so'qasi ya.ni omoch asosiy dehqonchilik quroli edi. Ot, ho'kiz, sigir, tuya, eshak dehqonning suyanchig'i hisoblangan.

Amirlik yerlarida paxta, bug'doy, jo'xori, tariq, arpa, beda yetishtirish dehqonchilikning asosini tashkil etardi. Deyarli har bir dehqon xo'jaligida o'z ehtiyoji va sotish uchun paxta yetishtirilardi. Ipakchilik ham rivoj topgan edi. Bog'dorchilik, sabzavotchilik va polizchilik keng rivojlangan. Piyoz, sabzi, bodring, qovoq, qovun, tarvuz, olma, olxo'ri, o'rik, shaftoli, nok, yong'oq, bodom, anjir, uzum yetishtirilardi. Buxoro amirligi o'zining qovun va uzumi bilan mashhur edi. Ayni paytda, bog'dorchilik ham yaxshi rivojlangan. Hatto ko'pgina shaharlarni bog'lar o'rab turardi. 4 qismdan iborat alohida reja asosida bunyod etilgan bog'lar ham bo'lardi. Bog' qismlarining har birini ariqlar ajratib turgan. Bunday bog'lar chorbog' deb atalgan. Buxorodagi Jo'ybor, Toshkentdagi Kaykovus bog'lari eng mashhur bog'lar edi.

Amirlikda, garchand salmog'i dehqonchilikdan pastroq bo'lsa-da, chorvachilik ham rivojlangan. Chorvachilik tumanlarida dumbali va qorako'l qo'ylar, yirik shoxli qoramollar, tuya va otlar boqilgan. Jun, ten, go'sht, sut-qatiq va yog' kabi chorvachilik mahsulotlari xalq hayotida muhim rol o'ynagan.

Shaharlar hamisha mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida g'oyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Chunki shaharlar davlat hokimiyati tayanchi, savdo va hunarmandchilik markazi, madaniyat hamda ilm-fan o'chog'i vazifasini o'tagan.

Amirlikning eng yirik shaharlaridan biri Samarqand edi. Samarqand shahrida kulolchilik, cho'yan quyish (degrezlik), teri oshlash, qog'oz, kiyim-kechak, qurol-yarog' ishlab chiqaruvchilar, baxmalboflar, kimxobgarlar, chitgarlar, bo'yoqchilar, po'stindo'zlar, mo'ynado'zlar mahallalari va rastalari bo'lgan. Samarqandda yetti madrasa faoliyat ko'rsatgan. Bular Ulug'bek, Sherdor, Tillakori, Safed (Xoja Ahror), Shayboniyxon, Xoja Abdulg'ofur, Qozi Soqiy madrasalari edi.

Ashtarxoniylar davrida kuchayib ketgan siyosiy kurashlar, chet elliklar hujumi natijasida talangan, vayronaga aylangan Samarqand shahri Amir Shohmurod davrida deyarli qayta tiklangan. 1780-1785 yillarda Amir Shohmurod ushbu shaharga hokim etib tayinlangan. Buxoroda hokimiyat tepasiga kelgandan so'ng ham hayotining so'ngiga qadar Samarqandni rivojlanishiga katta e'tibor bergan. Amir Shohmurod Samarqandga Yom, Zomin, Toshkent, Urgut, Marv va boshqa hududlardan aholini ko'chirib o'tkazgan, hamda 24 ta guzarni shaharda shakllantirgan, Yominiy, Toshkantiy, Zominiy, Urgutiy shular jumlasidandir.³¹ Amir Shohmuroddan keyin ham Samarqandga bo'lgan e'tibor davom etgan, xususan, XIX asr boshlarida shahar baland devor bilan o'rab olingan. Devorning uzunligi 13,9 chaqirim, maydoni 10,4 kv kilo-metrni tashkil etgan. Shaharda 80 ming aholi istiqomat qilgan.

Amir Shohmurod Poytaxt Buxoro shahriga ham alohida e'tibor bergan. Uning davrida Buxoroda 30 ga yaqin karvonsaroy bo'lib, ularda musofir va mahalliy savdogarlar istiqomat qilganlar. Karvonsaroyda ombor, do'kon, ustaxona, mehmonxonalar bo'lgan. Karvonsaroylarning amirga, ayrim shaxslarga va vaqfga tegishlilari bo'lgan. Buxoro karvonsaroylariga har yili 12 - 15 ming tuyada mol kelgan. Savdo ishini karvonboshi — amirlikdagi

³¹ Shamsutdinov R. "Vatan tarixi" 2-jild, T.; 2012

barcha savdo islilarining boshqaruvchisi boshqargan. Buxoroda ichki va shaharlararo savdo to'qqizta tim va chorsuda amalga oshirilgan. Amir Shohmurod davrida Buxoro shahrida 100 ga yaqin madrasa, 300 dan ziyod masjid mavjud bo'lgan.

Hunarmandchilik amirlik shaharlarining iqtisodiy hayotida muhim ahamiyatga ega edi. Hunarmandchilikning asosiy turlaridan biri to'qimachilik bo'lgan. Buxoro olachasi, bo'zi, bo'zga gul bosish yo'li bilan tayyorlanadigan chiti, shoyisi, Samarqandning to'q qizil rangli baxmali mashhur edi. Yigirilgan ipdan ro'mol, choyshab, salla to'qish ham keng tarqalgan. Hunarmandchilik ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlaridan yana biri — temirchilik va miskarlik bo'lib, o'roq, pichoq, shuningdek, qurol-yarog' yasashgan. Temirchilar qilich, xanjar, oybolta, nayza, qalqon, kamon va uning o'qini yasas edilar. To'plar yasash ham yo'lga qo'yilgan. Zargarlik, kulolchilik, yog'ochsozlik ham muhim soha hisoblangan. Yog'ochdan eshik, beshik, deraza, arava, sandiq, qayiq va boshqalar yasalardi. Yog'och o'ymakorligi alohida ahamiyatga ega edi. Novdalardan savatlar to'qilardi. Uy sharoitida namat, gilam to'qish, oshlangan charmdan egar-jabduqlar, ayillar, pichoq qinlari, hamyonlar tikish ham keng rivojlangan.

Boshqa hukmdorlar qatori Amir Shohmurod davrida ham davlat hayotida iste'mol ehtiyojlari ishlab chiqarishdan ustun bo'lmadi. Bu esa o'z navbatida, yuqori mehnat unumdorligini ta'minlovchi yirik mashinalashgan ishlab chiqarishdan foydalanish ehtiyojini vujudga keltirmadi. Natijada, oddiy hunarmandchilik ishlab chiqarishi manufaktura ushlab chiqarishi darajasiga ko'tarilmadi. Shuning uchun ham ichki bozorda odatdagi hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi yetakchi o'rin egallagan.

Buxoroda bozordagi narx-navo, tosh-tarozining to'g'riligi qattiq nazorat qilinar edi. Kimki xaridor haqqiga xiyonat qilsa, qattiq jazoga duchor etilardi,

xususan, bundaylar yarim yalang'och holda aravada, bozor ahliga namoyish qilish uchun sazoyi qilinardi va ovozi boricha: „Men shayton yo'liga kirib, xaridorni aldadim”, deb jar solishga majbur etilardi.

O'rta Osiyo, xususan, Buxoro bozorlari faqatgina xo'jalik vazifasini o'tab qolmagan. Ular ayni paytda o'ziga xos jamoat va madaniyat markazi vazifasini ham bajargan. Xususan, bozorlarda hukmdorning farmonlari o'qib eshittirilar, aybdorlar jazolanar, bayram kunlari esa turli tomoshalar ko'rsatilar edi.

Amir Shohmurodning davrida mamlakatning tashqi savdo aloqalari to'xtab qolgani yo'q, Buxoro davlati Hindiston, Afg'oniston, Eron, Xitoy, Rossiya imperiyasi bilan savdo aloqalarini olib borgan.

Amir Shohmurod davridagi ko'p ijobiy o'zgarishlar Buxoro davlatining madaniy hayotiga ham ta'sir etmay qolmadi. Xususan, tarix, adabiyot, san'at rivojlandi. Garchi dunyoviy bilimlar, she'riyat va san'at Amir Shohmurod davrida diniy bilimlardan keyingi o'rinda ko'rilgan bo'lsada, sezilarli darajada jonlangan edi.

Buxoroning XIX asr birinchi yarmida ijod etgan tarixchi olimi Muhammad Ya'qub ibn Doniyolbiy Buxoriy 1771—1831 yillarda yashab ijod qilgan. U Doniyolbiy otaliqning kenja o'g'li, hamda Amir Shohmurodning ukasi bo'lib, saroydan tashqarida yashagan. Muhammad Ya'qub jiyani Amir Xaydarga bag'shlab, 1826-1831 yillarda „Gulshan ul-muluk” (Podsholilar gulshani) degan asar yozgan. Bu asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida Buxoroning qadimgi tarixi, uning hukmdorlari shajarasi bayon etilgan.³² Asarning ikkinchi qismida esa O'rta Osiyoning XVIII va XIX asr boshlaridagi tarixi bayon etilgan. Asar Amir Shohmurod davrida yozilmagan bo'lsada, lekin uning davri asarda yaxshi yoritilgan.

³² Shamsutdinov R. “Vatan tarixi” 2-jild, T.; 2012

Xiva va Qo'qon xonlaridan farqli o'laroq, mang'it hukmdorlar madaniyat, xususan, adabiyot taraqqiyotiga qiziqish bilan qaraganligi, adabiy ijod bilan bog'liq biron-bir masalani hal etib berish yoki ijod ahliga sharoit yaratib berganliklari sezilmaydi.

Amir Shohmurodning zamondoshi, o'ziga xos iste'dod egasi Muhammadniyoz Nishotiy (XVIII asrda yashab ijod etgan) o'rtacha, vaqti kelganda kambag'allik va sargardonlikda yashagan edi. Shoir 1778-yilda o'zining ajoyib „Xusnu Dil“ dostonini yaratgan. O'zbek adabiyotining katta yutug'i sanalgan bu asarni shoir majoziy shaklda yozgan. Doston qahramonlari — Aql, Husn, Yurak, Xayol, Vafo, Nazar, Ishq va boshqalarning har bin g'oyat go'zal insoniy fazilatlarga ega. Raqib, Fasod, Nafs obrazlari esa yomon sifatlar hamda turli yovuzliklarning timsoli edi. Asardagi obrazlardan biri ishq o'zining dadil va oqilona qarorlari, harakatlari bilan har xil mamlakatlarning turli qarashlarga ega hukmdorlarini bir bitimga olib keladi va hammaning muhabbatiga sazovor bo'ladi. Oxir-oqibat ularning hammasi bir-birlari bilan yarashadilar. Ishq oldida ta'zim bajo keltiradilar va uning farmonlariga bo'ysunishga mayl izhor etadilar. Shu tariqa, Nishotiy dostonida odamlar va davlatlar orasidagi nizolar, baxillik va boshqa axloqiy qusurlar qoralanadi.³³ Yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi qarashlarda xayrli intih'shlar, aql va oliyjanob niyatlar ustun keladi. Bundan tashqari, Nishotiyning adabiy ijodidagi yana bir o'ziga xoslik — bu, adabiyotda munozara janri taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligidir. Bu o'rinda uning „Qushlar munozarasi“ majmuasi katta ahamiyatga ega. Asarda o'sha davrdagi ijtimoiy tuzumga xos illatlar, jaholat, mansabparastlik majoziy shaklda tanqid qilingan, mehnat ahlining kamtarligi ulug'langan. Asarda laylak, zog', bulbul, to'vus, to'ti, xumo kabi jami 14 ta qush o'rtasida bo'lib o'tgan bahs tasvirlangan. Muallif qushlar bahsi orqali insonga xos

³³ Shamsutdinov R. "Vatan tarixi" 2-jild, T.; 2012

takabburlik, xudbinlik, maqtanchoqlik kabi illatlarni qoralagan. U 38 g'azal, 14 muxammas va bitta qasida yozgan.

Bu davrning yana bir mashhur shoiri Mujrim-Obid edi (1748-1818). U „Mujrim“ hamda „Obid“ taxalluslari bilan ijod qilgan. Uning turkiy devonida 459, forsiy devonida 206 g'azal bor. Shoirning asarlarida jamiyatdagi nomukammallik, ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik odamlar fe'lidagi illatlar tanqid ostiga olinadi. Ularda shoirning axloqiy qarashlari, pand-nasihatlari aksetgan.³⁴

Buxoroda Shavqiy, Joniy, Hiromiy, Vola va Junaydulloh Hoziq kabi o'nlab iste'dodli shoirlar ham ijod qilganlar.

Volaning (1770 - 1842) ko'zi tug'ma ojiz bo'lsa-da, tabiat unga kuchli iroda, aql, xotira va qobiliyat hamda yoqimli ovoz in'om etgan edi. Shoir o'z she'rlaridan 2 ta devon tartib bergan. Bizgacha 3 ming misra she'rlari yetib kelgan. O'z she'rlarida xalq boshiga tushgan kulfat va mashaqqatlarni kuylagan.

Buxoro san'ati sohasining musiqa yo'nalishidan maqom³⁵ ayni Amir Shohmurod davrida rivojlanib, keng tarqaldi. Buxoro Shashmaqomi, Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlaridan iborat bo'lib, 250 dan ortiq har xil shakldagi kuy va ashula namunalaridan tashkil topgan. Maqom ashulalarining she'riy matni Rudakiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Bobur, Nodira va Mashrab singari turkiy va forsiy tilli mumtoz shoirlarning lirikasidan tuzilgan. Shashmaqom og'zaki tarzda ustoz-shogird an'anasi shaklida avloddan-avlodga o'tib kelmoqda.

³⁴ Shamsutdinov R. "Vatan tarixi" 2-jild, T.; 2012

³⁵ Maqom — musiqada bir qismli yoki turkumli cholg'u va ashula yo'llari; musiqiy uslub.

2-Bob. Amir Shohmurodning tashqi siyosati.

2.1. Amir Shohmurodning Xiva va Qo'qon xonliklari, hamda Sharq mamlakatlari bilan munosabatlari.

Amir Shohmurodning tashqi siyosati hukmronligining dastlabki davridan boshlangan bo'lib, o'ziga yarasha ahamiyatga ega. Mamlakatning tashqi savdosi Shohmurod davriga kelib, yuksala boshladi, bu albatta uning amalga oshirgan islohotlari natijasida ichki tartibning o'rnatilishi va savdo-sotiq rivoji uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan bevosita bog'liq. Buxoro davlati shayboniylar va ashtarxoniylar davrida Xiva, XVIII asr boshlaridan Qo'qon bilan asosan savdo aloqalari mavjud bo'lgan, ular o'rtasidagi diplomatik munosabatlar to'g'risida ijobiy fikrlar bildirish qiyin. Chunki, bu davlatlar o'rtasida nizolar ko'p bo'lgan, ayniqsa Buxoro va Xiva o'rtasida tez-tez urushlar ro'y berib turgan. Qo'qon xonligi Buxorodan ajralib chiqib ketgani bois uni qaytarishga urinishlar ham bo'lgan. Lekin bu kabi holat mazkur davlatlar o'rtasidagi savdo aloqalarini to'xtatmagan, dushman yurtning savdogarlariga teginilmagan.

Amir Shohmurodning Xiva va Qo'qon xonliklari bilan samimiy diplomatik aloqalari haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Lekin shunisi aniqki, Amir Shohmurod mazkur xonliklar bilan urushlar olib bormagan, "qizilboshlilar" ustiga ular bilan birgalikda harbiy yurish qilmagan va harbiy yordam so'ramagan. Ehtimol, buning sababi ikki xonlik ham Buxoroda bo'lgani kabi markazlashtirish siyosati bilan band bo'lgani uchundir. Mana shunday qiyin jarayonni boshidan o'tkazayotganda Amir Shohmurod bilan bir vaqtda Xivada Muhammad Amin inoq og'li Avaz inoq, Qo'qonda esa Norbo'tabiy hukmronlik qilgan.

Amir Shohmurod davrida Xiva bilan savdo aloqalari davom etgan. Buxoroliklar Xiva bozorlarida savdo qilishdan tashqari, savdo qilish maqsadida Xiva xonligi orqali Astraxanga borishgan.

1785-yilda Amir Shohmurod tomonidan Toshkentning egallanishi, Qo'qon xonligining Buxoro bilan munosabati keskinlashishiga olib keldi. Chunki Norbo'tabiy sarhadlari yaqinida Buxoro bo'lishini istamas edi, ustiga ustak Toshkentni egallash uning rejasida ham bor edi. Lekin Qo'qon ham, Xiva ham Amir Shohmurod davrida Buxoroga hujum qilishga jur'at qila olmadi. Sababi Buxoro mang'itlar davrida bu ikki xonlikdan ko'ra qudratli edi.

Qo'qon xonligi Buxoro bilan ham yaqin savdo aloqalari o'rnatgan. Qo'qonga Buxorodan quyidagi karvon yo'llari kelgan:

1. Buxoro - Samarqand – Jizzax – Zomin – O'ratepa – Xo'jand – Mahram – Beshariq -Qo'qon.

2. Buxoro – Samarqand - Yangiqo'rg'on – Jizzax – Ravot – Jom - O'ratepa - Xo'jand- Mahram – Beshariq - Qo'qon.

Buxorodan Qo'qonga oziq-ovqat mahsulotlari ham keltirilgan. P.I. Demezoning yozishicha, Buxoroda yetishtirilayotgan guruch aholi ehtiyojini qondirmayotgani uchun, uni Qo'qondan keltirishga to'g'ri kelgan³⁶. Buxorodan Qo'qonga ipak matolar, qorako'l terisi, hind baqqollik mollari, mal-mal, kobul kamarlari va sallalari keltirilgan. Qo'qon aholisi asosan tilla yoki kumush bilan to'qilgan kimxob ipak matosiga talabgor bo'lgan. Uning eni bir arshin bo'lib, 10 tillodan 45 tillogacha sotilgan.

Savdo aloqalarining doimiy, bir me'yorda davom etishi va rivojlanishi transport va karvon yo'llarining ahvoliga bog'liq bo'lgan. Bu o'rinda Qo'qon bilan Buxoro o'rtasidagi savdo aloqalari alohida mavqyega ega bo'lgan. Ular o'rtasidagi karvon yo'li tekis bo'lib, tovarlarni tashishda aravalardan

³⁶ Записки о Бухарском ханстве. (Отчеты П.И.Демезона и И.В.Виткевича). М.1983. с 76.

foydalanilgan. N.V.Xanikovning bergan ma'lumotlariga ko'ra, ikkita asosiy Qo'qon karvonining birinchisi Buxoroga yozning boshida va ikkinchisi kuzning oxirida kelgan, kichik karvonlar esa yil davomida qatnab turgan. Qo'qonliklar Buxoroga mahalliy hunarmandchilik buyumlaridan tashqari, xitoy tovarlari - choy, kumush yombi, chinni buyumlar va marjon hamda boshka rus tovarlarini olib kelgan³⁷.

Qo'qondan Buxoroga eksport qilinadigan asosiy tovarlar ipak va ipak gazlamalar bo'lib, har yili 8 ming pudgacha keltirilgan. Eng sifatli ipak «chilla» deb atalib, u Qo'qonda ishlab chiqarilgan.

Qo'qon bilan Buxoro o'rtasida yaxshi savdo aloqalari o'rnatilgan. Qo'qon tovarlari na faqat Buxoro bozorlarida, hattoki Buxorodan Kobulga olib borib sotilgan. Qo'qon ipagi sifati jihatidan Buxoro ipagidan ustun turgan. Shuning uchun uning narxi bir pudi 16 tillo, Xo'jand ipagi esa 15 tillo turgan³⁸.

Buxoro bozorlarida choy, chinni idishlar, qisman xitoy va qo'qon ipak gazlamalari va ko'plab rus temir, cho'yan va po'lat buyumlari sotilgan. Toshkentning Sibir chegaralariga yaqinligi, toshkentlik savdogarlarga qisqa muddatda tovarlarni Buxoro bozorlariga yetkazib berishga imkoniyat bergan. Bu temir, cho'yan va po'lat buyumlarning kattagina qismi Xisor, Badaxshon, Xulm, Maymand va boshqa joylarga toshkentlik va xivalik savdogarlar tomonidan olib borib sotilgan³⁹.

Qo'qon Buxoro orqali Hindiston bilan ham savdo qilgan. Jumladan, Peshavordan Buxoro orqali Qo'qonga ingliz-hind tovarlari keltirilgan. Peshavordan Kobul, Qarshi, Samarqand va Qo'qon yo'li orqali O'rta

³⁷ Ханьков Н. Описание Бухарского ханства. СПб., 1843. с. 175.

³⁸ Сведения о произведениях и торговле Бухарии. Выр. из журнала «Мануфактура и торговли». 1840. Хмыр. Кол. Средняя Азия. Т. 1. с. 414.

²⁴ Юнусходжаева М.Ю. Роль Ташкента в торговле России и Восточного Туркестана во второй половине XVIII в. // Позднефеодальный город Средний Азии. Т. «Фан».1990. с.123

Osiyoga har yili 10-15 ming tuyada tovarlar keltirilgan. Keltirilgan tovarlar asosan oq mal-mal, gul tikilgan ko'ylaklik matolar, shakar, indigo, qalin surp va chitlardan iborat edi. Peshavordan O'rta Osiyoga keltirilgan 10-15 ming tuyay tovarlardan 1000 tuyasi bombey choylari bo'lgan.

Buxoro xonligi tashkil topgandan buyon Sharq mamlakatlari Eron, Xitoy, Hindiston va Usmonli turk imperiyasi bilan diplomatik va savdo aloqalari qilib kelingan. Amir Shohmurod davrida ham Sharq mamlakatlari bilan o'ziga xos diplomatik va savdo aloqalari o'rnatilgan bo'lib, asosan Hindiston va Afg'oniston bilan savdo aloqalar jadal rivojlandi, buning oqibatida Buxoro tashqi savdodan katta daromad oldi.⁴⁰ Xitoy bilan esa savdo aloqasi qilishga ehtiyoj bo'lmagan. Buxoro va Eron urush holatida bo'lgani bois ikkala davlat o'rtasidagi savdo aloqalari xatarli bo'lib qoldi, bundan tashqari Amir Shohmurodning Eronga nisbatdan yuritgan tashqi siyosati, shia masxabiga salbiy munosabati ham bu ikki davlat o'rtasidagi savdoga imkon bermas edi. Buxoro Turkiya bilan Eron masalasida diplomatik elchilik munosabatlarini o'rnatishga harakat qildi, lekin bu kutilgan natijani bermaydi. Quyida Amir Shohmurod davrida Buxoroning Sharq mamlakatlari bilan aloqalari haqida kengroq to'xtalib o'tamiz.

Buxoro va Afg'oniston davlatlari o'rtasidagi diplomatik va savdo munosabatlar Amir Shohmurod davrida o'zgacha kechdi. Bu ikki davlat o'rtasida ziddiyat mavjud bo'lib, Durroniylarning Afg'on podsholigiga asos solinishidan boshlangan edi. Muhammad Rahimbiy Buxoroda markazlashtirish siyosati bilan band ekanligidan foydalangan afg'onlar Buxoro davlati sarhadlariga ko'plab talonchilik yurishlarini uyushtirishdi. Amir Shohmurod esa Afg'on podsholigiga qarshi 1787-1788 yillarda muvaffaqiyatli urushlar olib bordi. Bu paytda Afg'onistonda Temurshoh

⁴⁰ Михалева Г.А, “Ўзбекистан в XVIII первой половине XIX века ремесло, торговля и пошлины” Т.; 1991-г

Durroniy (1772-1793-y.y.) hukmronlik qilgan. Ular o'rtasidagi hudud uchun kurash 1752-yilda Ahmadshoh Durroniy tomonidan bosib olingan Buxoro davlatiga tegishli, Amudaryoning o'ng sohilidagi Andxoy, Shiberg'on, Saripul va Axcha viloyatlariga egalik qilish uchun boshlandi.⁴¹ Bu kurashda Amir Shohmurod g'alaba qozonib, afg'onlarni mag'lub etadi. Temurshoh Amir Shohmurod bilan 1788-yilda sulh tuzishga majbur bo'ladi. Bu sulhga ko'ra, Afg'oniston Andxoy, Shiberg'on, Saripul va Axcha viloyatlarini Buxoroga qaytarib berib, Amudaryo har ikki davlat o'rtasidagi chegara bo'lib qolishiga kelishilgan edi. Lekin 1793-yilda Temurshoh Durroniy vafotidan foydalangan Amir Shohmurod Balx shahrini egallaydi.⁴² Temurshoh vorisi Zamonshoh Amir Shohmurodga qarshi jiddiy harakat ham qilolmadi. Balx shahri o'sha davrda Hindiston bilan savdo qilishga qulay bo'lgan muhim savdo bekati bo'lgan. Balxni egallashi bilan Amir Shohmurod Afg'oniston va Hindiston bilan tashqi savdoning jadallashuviga erishdi. Amir Shohmurodning pul islohoti va tashqi savdoga bergan katta e'tibori tufayli Buxoro va Afg'oniston o'rtasidagi savdo sezilarli darajada rivojlandi. Buxorolik savdogarlarning Afg'onistonga qatnovi Qobul, Qandahor, o'sha davrda Afg'onistonga qarashli Kashmir va Panjob, Hindiston bilan chegara hududlarini qamrab olgan. Buxorodan Afg'onistonga asosan paxta va ipak mahsulotlari eksport qilingan. Buxoroliklar Rossiya bilan keng ko'lamdagi savdo-sotiqni amalga oshirib, rus tovarlarini Afg'onistonga olib borib sotish bilan ham shug'ullanishgan. Rus tovarlarini esa bejirim sandiqlar, fabrikalarda ishlab chiqarilgan metall buyumlar va boshqa narsalar tashkil etgan. Afg'onistondan Buxoroga XVIII-asr oxirlarida har yilda 3-3,5 ming tuya yuk kelgan. Bu yukni asosan oltin, hamda kumush metallari, hind-ingliz mollari, muynali mahsulotlar, Kashmir matolari va boshqa turdagi matolar

⁴¹ Shamsutdinov R. "Vatan tarixi" 2-jild, T.; 2012

⁴² www.ru.wikipedia.org

tashkil etgan. Bundan tashqari, Buxoro savdogarlari 1790-1800-yillar davomida Afg'onistondan Rossiyaga hind matolari, hind yong'oqlari, hind-ingliz mollari, jami 50 ming rubllik yukni olib borib sotishgan.⁴³ Buxoroning Afg'oniston va Hindiston bilan savdo aloqalarida afg'on savdogarlarining roli katta bo'lgan.

Amir Shohmurod va Hindiston o'rtasida elchilik aloqalari to'g'risida ma'lumotlar o'rganilmagan. Shuni ta'kidlash mumkinki, Sharq mamlakatlar orasida aynan Hindiston Buxoro uchun savdo munosabatda eng qulay o'lka hisoblanib kelgan. Amir Shohmurod davrida ham Hindiston bilan savdo munosabatlari juda faol kechgan.

Buxoro savdogarlari asosan Hindistondagi Peshovar hududida savdo qilishgan. Buxorodan Hindistonga ipak gazlamalar, paxta mahsulotlari, shuningdek hunarmandchilik mahsulotlari olib borilgan. Hindistondan Buxoroga hind baqqollik mollari, mal-mal, hind-ingliz mollari, xilma hil matolar, kiyim-kechaklar, choy keltirilgan. Shuni ham ta'kidlash lozimki, XVIII asr oxiridan XIX asr I yarmiga qadar buxorolik savdogarlar hind savdogarlaridan katta miqdorda oltin, hamda kumush metallarini xarid qilib Buxoroga olib kelishgan. Fikrimcha, o'sha davrda Buxoro amirligida o'tkazilgan pul islohoti natijasida yangi pullarni zarb etishda oltin va kumushga ehtiyoj kuchaygan va bu muammo savdogarlar tomonidan chetdan oltin, hamda kumush olib kelish bilan hal qilingan.

Amir Shohmurod davrida Buxoro davlatining Xitoy bilan diplomatik va savdo aloqalari zaif bo'lgan. Hindiston, hamda Rossiya bilan savdo ancha kuchayishi bilan, Buxoro Xitoy bozorlariga ko'p qatnamay quydi. Hatto xitoyliklar ham Buxoro bozorlariga kam tashrif buyurishgan. Quyidagi faktorlar Buxoro va Xitoy o'rtasidagi savdo aloqalari zaiflashishiga olib

⁴³ Михалева Г.А., “Ўзбекистан в XVIII первой половине XIX века ремесло, торговля и пошлины” Т.,; 1991-г

kelgan: XVIII asrning I yarmida Buxoroda vujudga kelgan og'ir siyosiy vaziyat tufayli tashqi savdoning keskin tushib ketishi, Buxoro savdogarlari Qo'qon xonligi hududlari orqali Xitoyga borishgan, bu esa ko'p vaqt va ko'p xarajatni talab qilishi, bundan tashqari Buxoro savdogarlarini Hindiston, Afg'oniston bozor mahsulotlari qanoatlantirganligi va hokazo. Xitoyliklar asosan Qo'qon bilan savdo qilgan, qo'qonliklar Buxoroga Xitoy tovarlari - choy, kumush yombi, chinni buyumlar, marjon va har xil turdagi matolar yetkazib turgan. Shunday bo'lsada, Buxoro savdogarlari Xitoydan katta miqdorda oltin metallini xarid qilib, Buxoroga olib kelishganligi to'g'risida ma'lumotlar ham mavjud.⁴⁴

Amir Shohmurod Usmonli turk davlatiga bir necha bor elchilar jo'natganligi haqida ma'lumot mavjud.⁴⁵ Uning hukmronlik yillarida Turkiyani sulton Selim III (1789 – 1807 y.y.) boshqargan edi. Sulton Selim III ham Amir Shohmurod kabi o'z mamlakatida jiddiy islohotlar o'tkazgan, san'at va madaniyat homiysi bo'lgan. Amir Shohmurod Usmonli turk imperiyasiga elchilar yuborishining asosiy sababi bu ikki davlat o'rtasida savdo munosabatlarini o'rnatish emas edi, balki Eronga qarshi birgalikda “muqaddas urush” olib borishga ko'ndirish edi. Lekin Selim III ning Eron bilan urishishga imkoni yo'q edi, chunki 1791-yilda bo'lib o'tgan rus-turk urushidagi mag'lubiyat, mamlakatdagi tartibsizlik, iqtisodiy tanglik sababli buning iloji ham yo'q edi. Selim III huzurida bo'lgan Buxoro elchilari dastlab ijobiy javobni olishgan, ularning keyingi tashriflarida sulton bu urushda qatnasholmasligini, lekin ikki davlat o'rtasida diplomatik va savdo aloqalarini mustahkamlashga tayyor ekanligini ma'lum qilgan. Umuman Turkiya qo'shnisi Eronni raqib deb bilgan, bir-biriga xavf tug'dirib

⁴⁴ Михалева Г.А, “Ўзбекистан в XVIII первой половине XIX века ремесло, торговля и пошлины” Т.,; 1991-г

⁴⁵ www.ru.wikipedia.org

kelishgan. Turk sultonlari va aholisi islom dinining sunniy mazhabida, Eron esa shia mazhabida bo'lib, ular o'rtasidagi nizo diniy tus olgan vaqtlari bo'lgan. Selim III dan natija chiqmagach, Amir Shohmurodning o'zi Eronga qarshi harbiy yurishlar uyishtirishga majbur bo'ladi.

Amir Shohmurod va Eron. Amir Shohmurodning Eronga bo'lgan munosabati salbiy bo'lgan. Umuman, qadim-qadimdan Turon zamin va Eron zamin o'rtasida ziddiyatlar ko'p bo'lib turgan. Buxoro va Eron o'rtasida XVI-XVIII asrlarda ko'p nizolar kelib chiqqan, bu asosan "qizilboshlilar"ning tez-tez Buxoro sarhadlariga hujum qilib, talon-tarojlik bilan shug'ullanib turishi va diniy tafovut bilan bevosita bog'liq. Amir Shohmurodning Eronga nisbatdan yuritgan tashqi siyosati ana shu tarixan shakllanib kelgan nizolarga borib taqaladi. 1510-yilda Eron shohi Ismoilshoh Muhammad Shayboniyxonni Marv yaqinidagi jangda yengadi va Movaraunnahrning katta qismini egallab oladi. Bu ikki hukmdor o'rtasidagi nizo diniy ko'rinishda bo'lsada, aslida hudud uchun bo'lib, bosqinchilik maqsadidagi kurash edi. 1511-1514-yillarda eronliklar Movaraunnahrdan quvib chiqariladi, lekin mana shu davr ichida "qizilboshlilar" bosib olingan hududlarda ko'p zulm o'tkazishdi, shaharlarni vayron qilib talashdi. Xuddi shunga o'xshash holat 1740-yilda ham yuz berdi, Eron shohi Nodirshoh boshchiligidagi bosqinchilar Buxoro xonligiga hujum qilib, ko'p joylarni vayron qilishadi. Nizolarning diniy tus olishiga sunniy va shia mazhabidagilarning o'zaro azaliy qarama-qarshiligi, shia mazhabidagilarning sun'iy mazhabidagilarni tahqirlab, o'z mazhabini islom dinidagi eng oliy mazhab deb e'lon qilishlari, o'zlarini boshqalardan har tomonlama ustun deb bilishlarini sabab qilib ko'rsatish mumkin. Shunday holatlardan ko'ngli og'rikan Amir Shohmurod sunniy mazhabi vakili sifatida shia mazhabidagilardan aniqrog'i Erondan "o'ch" olish maqsadida ularga qarshi jihod ya'ni muqaddas urush e'lon qiladi. Umuman bu urush harakati zamirida

Erondan Xurosonni qaytib olish, Eronni zaiflashtirish turar edi. 1789-yilda Amir Shohmurod Marv shahrini to'liq egallagach, diqqat e'tiborini Eronning shimoliy hududlariga, Xurosonga qaratadi. Ma'lumotlarga qaraganda Amir Shohmurod 1790-yillardan to hukmronligi tugagunga qadar har yili bir yoki ikki marta Xurosonga yurish qilgan, ba'zi harbiy harakatlarga o'zi boshchilik qilgan, ba'zan o'rniga ma'sul kishi tayinlab harbiy kuch jo'natib turgan. Garchi Xurosonni egallay olmagan bo'lsada Buxoro lashkari har bir harbiy yurishdan katta o'ljalari va ko'p asirlar bilan qaytgan. Harbiy asirlar qul qilinib, Buxoro shahridagi qul bozorlarida sotuvga quyilgan.⁴⁶

Nodirshoh vafotidan keyin Eron bir qancha kichik mustaqil amirliklarga bo'linib ketadi. Eronning Xuroson viloyatida mustaqil boshqaruv uchun harakat avj oladi. Mozandaronda tashkil topgan Kojarlar amirligi ham oldin Eron tarkibida bo'lgan, poytaxt Sherozga bo'y so'nishdan bosh tortib, mustaqil siyosat yurita boshlagan. Bu kichik amirlik hukmdori Og'a Muhammad xon Kojar 1791-yilda Eron poytaxti Sherozni egallagach, Eronda Kojarlar sulolasiga asos soladi va birin-ketin Eronga tegishli bo'lgan barcha hududlarni qo'l ostida birlashtirish uchun harbiy yurishlar qiladi. 1795-yilda Og'a Muhammadshoh Gruziyani, so'ng 1796-yilda Xurosonni egallaydi. Xuddi shu yilda u Buxoroga Amir Shohmurodga qarshi yurishga qaror qiladi, lekin Gruziya Rossiya imperiyasi hukmronligini tan olganligini eshitgach, uning Buxoroga harbiy yurishi amalga oshmay qoladi.⁴⁷

Eronga ham, Buxoroga ham bo'y so'nishni istamagan Xuroson viloyati ko'p vaqt qarshilik qilishga urindi: Og'a Muhammadshoh o'limidan so'ng yana mustaqil bo'lib oldi, Buxoroning hujumlariga ham dosh bera oldi. Lekin

⁴⁶ Мирза Абдал Азим Сами. Таърих-и салатин-и мангитийа (История мангытского государства) /Изд. текста, предисл., пер. и примеч. Л.М. Епифановой.- М., 1962.

⁴⁷ www.ru.wikipedia.org

bu holat ko'p uzoqqa cho'zilmadi, Eron shohi Fath Alishoh Kojar tomonidan Xuroson baribir fath etildi.

Amir Shohmurodning Eronga qarshi olib borgan janglari, Erondagi siyosiy tarqoqlik, tartibsizlik bu ikki davlat o'rtasidagi savdo munosabatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Faqatgina Eronning Mashhad shahrida buxorolik savdogarlar savdo qilishgan. Chunki ma'lum muddat bu shahar Buxoroga bo'y so'ngan.

Buxoroning ipak va paxtadan tayyorlangan tovarlari Sharq mamlakatlari bozorida yetakchi o'rinlarda bo'lgan, buxorolik savdogarlar Amir Shohmurod va Amir Haydar davriga kelib, savdo aloqalarida boshqa yurt savdogarlaridan ko'ra ancha faol qatnashgan, bevosita Sharq mamlakatlarini Rossiya bilan bog'lagan. Buxoro amirligi g'aznasi tashqi savdo hisobiga ancha ko'p boyigan. Albatta bu olib borilgan barqaror siyosat va tashqi savdoga berilgan e'tibor natijasidir.

2.2.Amir Shohmurodning Rossiya bilan diplomatik va savdo aloqalari.

XVIII asr II yarmidan boshlab, Rossiya savdo-iqtisodiy aloqalarida O'rta Osiyo xonliklari, xususan, Buxoro amirligining ahamiyati ortib bordi. Bunda birinchidan, Rossiyada rivojlanib borayotgan sanoat uchun xomashyo manbalarni topishga intilish, ikkinchidan, Osiyoda, ayniqsa Hindistonda Angliya ta'sirining kuchayib borayotganligi sabab bo'lgan. Doniyolbiy davrida Buxoro davlatining Rossiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalarining yangi davriga tamaltoshi quyilgan edi.

Doniyolbiy otaliq 1774-yilda Ernazar Maqsud o'g'li boshchiligida boshchiligida o'z elchilarini Rossiyaga jo'natib, yaqin diplomatik va savdo aloqalarini o'rnatgan. Bu paytda u yerda Yekaterina II (1762-1797-yy.) hukmronlik qilar edi.

Ikki davlat o'rtasida savdo aloqalari o'rnatilishida Ernazar elchining o'ziga yarasha o'rni bo'lgan. Ernazar elchi - Mulla Muhammad Ernazarbiy Maqsud o'g'li XVIII-asrda yashab o'tgan yirik savdogar va elchi. Ernazar elchi Buxoro amirligining Rossiyaga yuborgan elchilari rahbari bo'lgan. U madrasada o'qigan bo'lib, 1745 yildan boshlab, Rossiyaga bir necha marta tijorat maqsadida borib, imperator Yelizaveta Petrovna qabulida bo'lgan. Savdo ishlari bilan Xuroson va Hindistonga ham borgan. Keyinchalik Buxoro hukmdori Doniyolbiy otaliq tomonidan 1774-76-yillarda va 1779-80-yillarda Rossiyaga yuborilgan 2 ta elchilik missiyasiga boshchilik qilgan.⁴⁸

Birinchi elchilik tarkibida 64 kishi va 20 ta ozod qilingan rus asirlari bo'lgan. Ular 1774 yil 1 sentyabrda Ashtarxon (Astraxon) shahriga kelishgan va Astraxon generalgubernatori P.Krechetnikov huzurida bo'lishgan. So'ngra

⁴⁸ www.uz.wikipedia.org

1775-yil 14-mart kuni Moskvaga yetib kelishgach, Rossiya imperatori Yekaterina II tomonidan rasmiy ravishda qabul qilingan (1775.5.4). Bu elchilik natijasida Buxoro bilan Rossiya o'rtasida mustahkam savdo aloqalari yo'lga qo'yilgan, savdo karvonlari xavfsizligi uchun Emba daryosi bo'yida qal'a qurilgan. Rossiyaning chegara shaharlari: Orenburg , Astraxonda Buxoro savdogarlaridan olinadigan bojxona solig'i kamaytirilgan, ichki shaharlarda O'rta Osiyo savdogarlarining erkin harakat qilishi kafolatlangan.

Ikkinchi elchilik 1779 yil o'rtalarida boshlangan, elchilik tarkibida 28 kishi bo'lgan. Ernazar elchi boshchiligida elchilar 1780-yil yanvarda Moskva va Peterburgga yetib kelishgan. Elchilik natijasida buxorolik savdogarlar Rossiyadan ko'p miqdorda mis, po'lat va cho'yan sotib olishga muvaffaq bo'lganlar.

Ernazar elchi Rossiyada o'z vazifasini to'liq uddalagach, 1795-yilda Buxoroda madrasa qurdirgan. Amir Shohmurod tomonidan Mulla Muhammad Ernazarbiy Maqsud o'g'li Turkiyaga elchi sifatida yuborilgan va o'sha yerda yashab vafot etgan.

Doniyolbiy otaliqdan so'ng Amir Shohmurod taxtga kelgach, tashqi savdoni rivojlantirishda Rossiya bilan savdo aloqalariga alohida e'tibor qaratdi. Uning davrida Buxoroning Rossiya bilan savdo aloqasi o'tgan davrlarga nisbatdan sezilarli darajada kuchaydi. Buxoro savdogarlari Rossiyaga ham asosan paxta va ipak mahsulotlarini sotish uchun olib borishgan, u yerdan esa muynali mahsulotlar, sandiqlar, fabrikalarda ishlab chiqarilgan metall buyumlar, turli xil matolar va boshqa turdagi mollarni olib ortga qaytishgan. Buxoro savdogarlari Rossiyaga hind mollarini ham yetkazib turgan, u yerdan rus mollarini Afg'onistonga olib borib sotishgan. Buxoro bilan Rossiya o'rtasidagi savdo aloqalarida qozoqlar ham rol

o'ynagan. Qozoqlar savdogarlarni ma'lum bir haq evaziga Orenburggacha kuzatib borishgan.⁴⁹

Amir Shohmurod davrida Rossiya bilan savdo aloqalari qanchalik rivojlanganligini quyidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz. O'rta Osiyo, xususan, Buxoro davlatining Orenburg guberniyasi orqali Rossiya bilan savdo aloqalari bo'yicha 1745-1774-yillar davomida to'plangan hujjatlarda ma'lum bo'lishicha Buxorodan Orenburgga 35 yil ichida jami 5.957.426 rubl miqdordagi tovar kiritilgan bo'lsa, shu muddat ichida Orenburgdan Buxoroga jami 5.047.113 rubl miqdorda tovar olib kelingan.⁵⁰

Endi Amir Shohmurod davridagi holatni qarab chiqamiz. Orenburg guberniyasining 1787-1796-yillardagi hujjatlarda 10 yil davomida Orenburgga O'rta Osiyodan jami 4625861 rubllik tovarlar kirgan bo'lsa, shundan 4.158.316 rubllik tovar Buxoro savdogarlariga, 467.545 rubllik tovar Xiva savdogarlariga tegishli bo'lgan. Xuddi shu davrda Orenburgdan Buxoroga 3.680.869 rubl, Xivaga esa 467.545 miqdordagi tovarlar olib chiqilgan.⁵¹ Shundan ko'rinib turibdiki, Amir Shohmurod davrida Buxoro O'rta Osiyo mintaqasida Rossiya bilan savdo aloqalar qilish bo'yicha yaqqol yetakchi o'rinni egallagan.

Rossiya imperiyasida hukmdorlar almashganligi sababli Amir Shohmurod Rossiya bilan diplomatik va savdo aloqalarini yanada mustahkamlash maqsadida 1797-yilda Sankt-Peterburgga Polvonquli boshchiligida o'z elchilarini jo'natadi. Rossiyaning yangi imperatori Pavel I elchilarni yaxshi kutib olgan va ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishini ma'lum qilgan.

⁴⁹ Записки о Бухарском ханстве. (Отчеті П.И.Демезона и И.В.Виткевича). М.1983.

⁵⁰ Михалева Г.А, “Ўзбекистан в XVIII первой половине XIX века ремесло, торговля и пошлины” Т.; 1991-г

⁵¹ Михалева Г.А, “Ўзбекистан в XVIII первой половине XIX века ремесло, торговля и пошлины” Т.; 1991-г

Amir Shohmurod hukmronligidan keyin ham Buxoroning Rossiya bilan savdo aloqalari rivojlanishda davom etdi. Orenburgda 1804- yili Buxoro amirligi savdogarlarining qarorgohi qurilib, unda 20 xonadon istiqomat qilgan. Ular Rossiya bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi savdoda muhim o'rin tutganlar. Qarorgoh ahli 1812- yilda Napoleon armiyasiga qarshi janglarda faol ishtirok etgan. 1825- yilga kelib savdogarlar qarorgohi kengayib, xonadonlar soni 30 taga yetdi. Ularning ko'pchiligi hunarmandlar (novvoylar, savdogarlar) bo'lib, o'z mahsulotlarini shu yerda sotuvga tayyorlaganlar. Buxorodan yo'lga chiqqan karvon 2 oyda Orskka yetib borardi. Ba'zida savdo karvoni 5 mingtagacha tuyadan iborat bo'lardi.⁵²

⁵² Shamsutdinov R. "Vatan tarixi" 2-jild, T.; 2012

Xulosa.

Amir Shohmurod hukmronligi davrida Buxoro davlati gullab-yashnadi, tinchlik hukm surdi. Amir Shohmurod oldida turgan mamlakatni markazlashtirish, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotni ko'tarish vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirib, davlat rivoji va xalq ravnaqini ta'minlagan adolatli hukmdorga aylandi. Amiri Ma'sum nomiga musharraf bo'lgan, O'zbekiston davlatchiligi tarixida chuqur ijobiy iz qoldirgan Buxoro amirligi hukmdori Amir Shohmurod 1800-yil 30-noyabrda 52-yoshida Buxoroda vafot etdi. Amir Shohmurod Buxorodagi Eshon Imlo qabristoniga, o'zining piri bo'lgan Shayx Muhammad Safar qabri yoniga dafn qilingan.⁵³ Ming afsuski, shunday ulug' insonlarning qabrlari 1930-yillarda Sobiq Ittifoq hukumati tomonidan buzib tashlandi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng O'zbekiston tarixiga kuchli e'tibor berila boshlandi: Vatanimiz tarixini chuqur o'rganib kelmoqdamiz, ajdodlarimizga chuqur hurmat-iftixor ko'rsatib, yorug' xotiralarini yod etmoqdamiz, ularning bizga qoldirgan ilmiy, madaniy va ma'naviy merosini o'rganib foydalanmoqdamiz. O'zbekiston tarixini o'rganish eng avvalo milliy o'zligimizni anglash, Vatanimiz tarixida o'zining siyosiy, ilmiy, ma'naviy va madaniy faoliyati bilan nom qoldirgan ajdodlarimizdan ibrat olishimiz, hamda tarixda yo'l quyilgan xato va kamchiliklardan xulosa chiqarib saboq olishimiz uchun juda ham zarurdir. Amir Shohmurod Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdullaxon II dek tarixiy shaxslar kabi nafaqat adolatli hukmdor, davlat arbobi sifatida, balki xalqparvar, insonparvar, iymonli, irodali, komil inson sifatida barchaga ibrat bo'la oladi. Amir Shohmurod va uning hukmronligi haqida ko'plab manbalarda ijobiy

⁵³ www.ru.wikipedia.org

tavsif berilgan, xususan, Xanikov Shohmurod haqida “Eshon Murodbiy hukmronligi(boshqa xon va amirlar davriga nisbatdan) barqaror edi” deb yozadi, Ahmad Donish esa Shohmurodning qattiqqo’lligi va kamtarligi uchun, uni xalifa Umar bilan qiyoslaydi. Amir Shohmurod haqida shaxsan o’zimning fikrimni bayon etadigan bo’lsam, bu buyuk hukmdor tarqoq 92 o’zbek qabilalarini birlashtirishga harakat qildi, yurt obodonchiligiga katta e’tibor berdi, ijtimoiy adolatsizlikka chek quydi, Samarqand shahrini qayta tikladi, bir vaqtning o’zida ko’pgina davlat ishlarini amalga oshira olgan tadbirkor amirdir.

Mustaqillikka erishganimizdan so’ng ajdodlarimizning nomi abadiylashtirish ishlari ya’ni viloyatlarimizda mavjud bo’lgan ko’chalar, hamda mahallalarning ko’pchiligiga ularning nomlari berildi. Xususan, Samarqand viloyati hokimligi tomonidan 1994-yil 28-dekabrda 565-qarori bilan sobiq Orlovskaya ko’chasi Amir Shohmurod ko’chasi deb ataldi.⁵⁴ Albatta bu Amir Shohmurodning Samarqand shahri uchun ezgu qilgan ishlariga bir hurmatdir. Maktab o’quvchilari Vatanimiz tarixidagi al-Beruniy, ibn Sino, al-Farg’oniy, al-Xorazmiy, Amir Temur, Mirzo Ulug’bek, Bobur Mirzo kabi tarixiy shaxslarimiz sanashganda Amir Shohmurodning ismi ham shu nomlar qatorida bo’lishi istar edim. Zero yosh avlodning vatanparvar, xalqparvar va insonparvar inson bo’lib tarbiyalanishida Amir Shohmurodning hukmronlik tarixi ibrat bo’lib xizmat qiladi.

⁵⁴ Сувонкулов И. “ Самарқанд қадамжолари” Т,; 2006-й

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Т. «Ўзбекистон» 1992.
2. Каримов И.А. «Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир».- Т.: «Ўзбекистон». 1995.
3. Каримов И.А. «Тарихий хотирасиз келажак йўқ».- Т.: «Шарқ» 1998.
4. Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан курашимиз. Т.7.- Тошкент. Ўзбекистон, 1999.-Б.132-133
5. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т.Маънавият, 2008.
6. Абдураимов М. А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в ХУП-первой половине XIX века. -Т.1. -Ташкент: Фан, 1966.
7. Азамат Зиё “Ўзбекистон давлатчилиги тарихи” Т.; 2001-й
8. Б.Аҳмедов Тарихдан сабоқлар. Т. Ўқитувчи. 1991
9. Анке Фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII - XIX вв.). - Алматы, 2004
10. Борнс А. Путешествие в Бухару. Т.1 – 3. – М., 1848-1849.
11. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. М., 1974. с.372.
12. Г.Агамейстер Ю.А.. О торговом значении Средней Азии в отношении к России. «Русский Вестник».Т. 41. Кн. 10. М., 1862. с. 707-708.
13. Дониш, Ахмед, История мангитской династии, Душанбе, 1967
14. Давидович Е.А., О мерах веса позднесредневековой Бухары., Душанбе, 1960 г.

15. Записки о Бухарском ханстве. (Отчеті П.И.Демезона и И.В.Виткевича). М.1983.
16. Зияев Х.З. “экономические связи Средней Азии с Сибирю в ХВИ-ХИХ вв.” Т.; 1983-г
17. История Узбекистана в источниках. Т.1988. с.96-97.
18. Курбанов Г.Н., Бухарские печати XVIII-нач.ХХ в.в., Ташкент, 1987
19. Мир Абуль Керим Бухарский. История Средней Азии / Пер. Г.А. Мирзаева //Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. 2. XVI-ХИХ вв. Иранские, бухарские и хивинские источники. -М.-Л.: АН СССР. 1938
20. Мирза Абдал Азим Сами. Таърих-и салатин-и мангитийа (История мангытского государства) /Изд. текста, предисл., пер. и примеч. Л.М. Епифановой.- М., 1962.
21. Михалева Г.А, “Ўзбекистан в ХВИИИ первой половине ХИХ века ремесло, торговля и пошлины” Т.; 1991-г
22. Мухаммед Али ибн Мухаммед Сайид Балчувони. Таърихи нофеи/ Тахияи А. Мухторов. – Душанбе: Ирфон
23. Муртазаева Р.Ҳ. “Ўзбекистон тарихи” Т.; 2003-й
24. П.Небольсин. Очерки торговли России со странами Средней Азии, Хивой, Бухарой и Коканом. СПб., 1856. с. 12.
25. Сувонкулов И. “ Самарканд кадамжолари” Т.; 2006-й
26. Филипп Назаров. Записки о некоторіх народах и землях средней части Азии. М.: Наука. 1968.
27. Ханьков И., Описание Бухарского ханства, С.Пб., 1843
28. Хорошхин А.П. Очерки Тошкента. В кн.: Сборник статей касающихся до Туркестанского края. СПб., 1876., С.77-142.С.29.

29. Шамансурова А.Ш. К вопросу о среднеазиатско-афганских отношениях в первой половине XIX в. //Взаимоотношения народов Средней Азии и сопредельных стран Востока в XVIII-начале XX в. Т.1963.с. 12.
30. Эпиграфика Востока, 1967 г., 18 выпуск, Бурнашева Р., "Монеты Бухарского ханства при Мангытах (середина 18-начало 20 в.)
31. Эпиграфика Востока, 1972 г., 21 выпуск, Бурнашева Р., "Монеты Бухарского ханства при Мангытах (середина 18-начало 20 в.)
32. Shamsutdinov R. "Vatan tarixi" 2-jild, T.; 2012


Foydalanilgan internet saytlari:

1. www.uz.wikipedia.org
2. www.ru.wikipedia.org
3. <http://cyberleninka.ru>
4. <http://greylib.align.ru>
5. <http://ziyo.net>

MAVZUGA DOIR SURATLAR.



Buxoro Arki – hukmdor saroyi.



XVII-XVIII asrlarda O'rta Osiy xonliklari chegarasi.



Amir Shohmurod qurdirgan Chorsu. (Samarqand. XVIII asr)



Chorsu (uzoqdan).

**Amir Shohmurod va Amir Haydar davrida zarb etilgan tangalar
suratlaridan namunalar**

Oltin tangalar

Kumush tangalar



Oldi



Orqasi



Oldi



Orqasi



Oldi



Orqasi



Oldi



Orqasi



Oldi



Orqasi



Oldi



Orqasi